

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MAXSUS SIRTQI BO`LIM FAKULTETI
BOSHLANG`ICH TA`LIM USLUBIYOTI KAFEDRASI**

**BOSHLANG`ICH TA`LIM VA SPORT TARBIYAVIY ISH
TA`LIM YO`NALISHI**

**Bitiruvchi kurs talabasi Homidova Mavjudaning
ona tili o`qitish metodikasi fanidan**

***«2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma
materiallardan foydalanish metodikasi» mavzusidagi***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy rahbar:

o`qit. A.E.Botirova

Navoiy – 2012

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining
2011-yil 27-sentabrdagi 2-sonli yig'ilish qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: p.f.n.Yelemesova Z. A., dots.Suyunov M. S.,

Katta o`qituvchilar: Alimov.A.Ya., Ungarov B.H., Tilavova G.X., Yuldoshev X.D.,

**O`qituvchilar:** Jo`lanov D.Q., Najimova A.I., Saidova N. R., Botirova.A.E.,
Egamqulova N.B., Sulanov A.X.

K U N T A R T I B I

2011 - 2012 o`quv yilida Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti fakulteti
Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo`nalishi talabasi
Homidova Mavjudaning mavzusini tasdiqlash to`g`risida

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri: p.f.n. Z.A.Yelemesova so`zga chiqib, kafedra a`zolarini
bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan tanishtirdi va mavzuning dolzarbligi, bugungi
kundagi ahamiyatini nazarda tutib:

*«2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish
metodikasi»* nomli bitiruv malakaviy ishining mavzusi qilib tasdiqlansin.

Ilmiy rahbar etib o`qituvchi A.E.Botirova belgilansin.

Kafedra mudiri:

p.f.n. Z.A.Yelemesova

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti fakulteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası****«T A S D I Q L A Y M A N »****BTM kafedrası mudiri****_____ p.f.n. Z.A.Yelemesova****2011-yil 27- sentabr*****MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO`YICHA TOPSHIRIQ***

Talaba _____

(talabaning ism sharifi)

1. Bitiruv ishining mavzusi _____

_____ kafedraning 2011-yil 27-sentabrdagi 2-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddati _____

3. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati «_____» _____ 2012- yil

4.Bitiruv ishning bajarilishiga doir boshlang'ich ma'lumotlar:

A. Mavzu yuzasidan materiallar to'plash _____

B. Dastlabki olingan materiallarni ishlab chiqish _____

V. Adabiyotlar majmuasini tuzish _____

G.Tadqiqot bosqichlarining xulosa va takliflar _____

5. Malakaviy bitiruv ishi bo'yicha o'tkazilish lozim bo'lgan tadqiqotlar

6. Bitiruv ishi bo'yicha mavzu mundariyasi va maslahatchi o'qituvchi (lar)

№	Mundarija	Maslahatchi o'qituvchi	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				
14				
15				
16				
17				

7. Bitiruv malakaviy ishining bajarish rejasi.

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi	
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				
14				
15				

Bitiruv malakaviy ishi rahbari
Topshiriqni bajarishga oldim
Topshiriq berilgan sana

o'qit. A.E.Botirova _____
M. Homidova _____
« » sentabr 2011-yil

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining

2012-yil 29-maydagi 10-sonli yig'ilish qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: p.f.n.Yelemesova Z.A, dots.Suyunov M.S.,

Katta o`qituvchilar: Alimov.A.Ya.,Ungarov B.H.,TilavovaG.X.,Yuldoshev X.D.,

**O`qituvchilar:** Jo`lanovD.Q., Najimova A.I., Saidova N.R., Botirova.A.E,

Egamqulova N.B., Raxmonova R.P., Sulanov A.X.

K U N T A R T I B I

Bitiruvchi talabalarning bitiruv malakaviy ishi muhokamasi.

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri: p.f.n. Z.A.Yelemesova so`zga chiqib, kafedra a`zolarining ona tili o`qitish metodikasi va matematika o`qitish metodikasi fani bo`yicha tayyorlagan bitiruv malakaviy ish haqida to`xtalib, ishning to`liq talab asosida tayyorlanganligini, ilmiy rahbarlarning, yakuniy xulosasi, ichki va tashqi olingan taqrizlarning ijobiyligini, zaruriy hujjatlar rasmiylashtirilganligini ta`kidlab o`tdi.

Shundan so`ng bitiruvchi: **Homidova Mavjuda**

O`z mavzusi bo`yicha uning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, olib borilgan uslubiy ishlarning natijalari haqida o`zining xulosa va tavsiyalarini bayon etdi.

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi yuzasidan berilgan savollarga to`liq javob qaytardi.

YIG`ILISH QAROR QILADI:

Bitiruvchi : **Homidova Mavjudaning**

«2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish metodikasi» **mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tugallangan ish deb hisoblansin.**

Bitiruvchi : **Homidova Mavjudaning**

«2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish metodikasi» **mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etilsin.**

Kafedra mudiri:

p.f.n. Z.A.Yelemesova

DAVLAT ATTESTATSIYASI KOMISSIYASINING RAISIGA

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

_____ fakulteti
 _____ ta'lim yo'nalishi
 bitiruvchi kurs talabasi _____ ning

Reyting qaydnoma ko'chirmasi, malakaviy bitiruv ishi rahbarining mulohazasi, kafedraning ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, olingan taqrizlar ilova qilinadi.

Fakultet dekani:

f.f.n.F.I.Nurmonov

Navoiy davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining malakaviy bitiruv ishi haqidagi

X U L O S A S I

_____ ta'lim yo'nalishi _____kurs «__» guruhi

mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi kafedra yig'ilishida muhokama qilingan va davlat attestatsiyasi komissiyasining himoyasiga tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri:

p.f.n. Z.A.Yelemesova

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING BAHOLASH MEZONI**Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti fakulteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası**

Talaba _____

(talabaning ism sharifi)

HIMOYA VAQTI «_____» _____ 2012-yil

Mavzuning dolzarbligi	Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi	Amaliy ahamiyati	Adabiyotlardan foydalanish darajasi
12	32	16	10

Ishning rasmiylashtirilishi	BMI himoyasi	Umumiy ball	%
10	20	100	%

DAK raisi: _____

DAK a'zolari : _____

M U N D A R I J A

KIRISH		3-9
I bob.	2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishning metodik asoslari	
1.1.	2-sinf ona tili va o`qish darslarining maqsad va vazifalari	10-17
1.2.	2-sinf o`quvchilarining ona tili va o`qish fanidan bilim, ko`nikma va malakalariga qo`yilgan asosiy talablar	18-27
1.3.	2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish masalalari	28-31
II bob.	2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish metodikasi	
2.1.	2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallar asosidagi mustaqil ishlardan foydalanish yo`llari	32-40
2.2.	2-sinfda ona tili, o`qish darslarida qo`llaniladigan tarqatma materiallar	40-56
2.3.	Didaktik o`yinlardan foydalanish jarayonida qo`llaniladigan ko`rgazmali vositalar	56-68
	Tajriba-sinov ishlari va uning natijalari	68-75
	Xulosa	75-77
	Adabiyotlar ro`yxati	78-79

KIRISH

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq xalq ta'limi sohasida tub islohotlar boshlab yuborildi. Zero, bundan buyon “Ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy o'yg'onish g'oyasini ruyobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi”¹.

O'tgan qisqa davr ichida “Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish konsepsiyasi”, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilinib, uning talablariga ko'ra sinovdan o'tkazilgan davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi va yangi mazmundagi darsliklar yaratildi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik texnologiya, axborot hamda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va o'z faoliyatlarida qo'llashga bo'lgan qiziqishlari kuchaydi, o'quvchilarning ijodiy ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bosh maqsadga aylandi; o'qitishning eng samarali, ayniqsa, noan'anaviy, interfaol metod, vosita va usullarini tatbiq etishga bo'lgan intilishlari ortdi. Yangilanish borasidagi muvaffaqiyatlarni ko'rsatish, kamchiliklarni aniqlash, bajarilmayotgan ishlarni belgilash dolzarb muammoga aylandi.

Mustaqil Respublikamizda komil inson tarbiyasi doimo Prezidentimizning diqqat e'tiborida bo'lib keldi. Jumladan, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar berkitib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I. A. Karimov². Yana shuni aytish mumkinki, Prezidentimiz milliy istiqlool g'oyasini barchaga, shu jumladan, endigina shaxs sifatida shakllanib o'sayotgan bolalarga qanday usullar yordamida singdirish mumkinligi juda nozik masala ekanligini qayd qilib o'tadilar. Mustaqil O'zbekistonimizning yanada ravnaq topishida barkamol shaxsni, komil insonni har tomonlama tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biridir³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Tarixiy xotirasiz - kelajak yo'q”

¹ Баркамол влод – Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори. Тошкент “Шарк” нашриёти, 19983-бет.

² Баркамол авлод орзуи. Тошкент “Шарк” нашриёти, 1999, 13-бет.

³ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Тошкент., “Ўзбекистон”, - 2012, 440 бет.

asarida komil inson tushunchasiga aniq ta'rif keltirganlar. "Komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq - atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"⁴. Ta'lim tizimi va maktab oldiga maqsad qilib, ya'ni komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish qo'yildi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning tub mohiyati ta'lim mazmuni va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan keyin iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lga ega bo'ldi. Mustaqillik omili ta'lim sohasini ham tubdan yangilash zaruriyatini vujudga keltirdi.

Mustaqillik - eng ulug', eng aziz ne'mat. Ozodlik, hurriyat, erkinlik. Bu oliy tushunchani yurakdan his qilish, anglab yashash - buyuk saodat. Mustaqillik - xalqimiz uchun erkin, baxtli va farovon, hech kimdan kam bo'lmagan hayot kechirish imkonini bergani, yurtdoshlarimizning barcha sohalarda o'z iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratgani bilan qadrlidir.

"Bugun mustaqil taraqqiyot yillarida bosib o'tgan, oson kechmagan yo'limizni, amalga oshirgan ishlarimizni, erishgan yutuq va marralarimizni sarhisob qilar ekanmiz, hech shubhasiz, xolisona bir xulosaga kelishimiz tabiiydir. Yani bundan o'n to'qqiz yil oldin yurtimizda erkin va mustaqil demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatni qurish, iqtisodiyotimizni keskin va chuqur isloh etish, aholimiz manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha qabul qilgan azmu qarorimiz yakkayu yagona to'g'ri qaror ekanini bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda", - deydi Prezidentimiz I. A. Karimov⁵. "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak"⁶, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar

⁴ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент "Шарқ" нашриёти, 19986 6-бет.

⁵ Президент И.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи "XXI аср" газетаси, 2011 йил, 36-сон, 1-бет.

⁶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008, 1-bet.

tayyorlash milliy dasturi talablari asosda ta`limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi.

Bugun biz tarixiy bir davrda - xalqimiz o`z oldiga ezgu va ulug` maqsadlar qo`yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, ma`naviyatni yengilmas kuch sifatida baholayotgan murakkab bir davrda yashamoqdamiz.

Mavzuning dolzarbligi. O`zbek xalqi nihoyatda boy va rang-barang adabiy merosga ega bo`lib, u turli davrlarda yaratilgan xalq og`zaki ijodi namunalari, turli janrlarda bitilgan hamda asrlar osha o`z qimmatini yo`qotmagan bebaho asarlarni o`z ichiga oladi. Avvalambor shuni aytish kerakki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo`ri, mahsuli bo`lmish bu noyob yodgorliklarning zamon to`fonlaridan, qanchadan-qancha og`ir sinovlardan o`tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o`zida katta ma`no mujassam.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta`lim sohasida ham bir qator o`zgarishlar qilinishini taqozo etmoqda. Hozirgi kunda ta`lim sohasida erishilgan yutuqlarni saqlagan holda, bir xillikdan bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta`limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o`quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotga qo`llash, ularda amaliy ko`nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o`tishga harakat qilish shu kunning talabidir. Shunga erishilsagina Vatanimiz kelajagi bo`lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo`yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin. Bola hayotida bog`chadan so`ng maktabning dastlabki davrlari muhim o`rin tutadi. Shu bois boshlang`ich ta`lim davri ta`lim jarayonidagi eng mas`uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni hamda “Boshlang`ich ta`lim Konsepsiyasi”da ta`kidlanganidek, o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatuvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi usullarni qo`llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang`ich ta`limining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun esa yangi

pedagogik texnologiyalar, turli xil tarqatma materiallardan foydalanish boshlang`ich sinf o`quvchisining rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat, kasb etadi. Ayniqsa, turli xil tarqatma materiallardan foydalanish juda yaxshi natija beradi. Ona tili va o`qish darslarida turli xil tarqatma materiallardan foydalanish bolalarning og`zaki va yozma nutq madaniyati, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda ijodiy tafakkur faoliyatini rivojlantirib boradi.

O`qituvchining ta`lim-tarbiya jarayonini to`g`ri va oqilona boshqara olishi o`quvchi shaxsi kamolotida nihoyatda ahamiyatlidir. Bu boradagi ishlarni muvaffaqiyatli hal etish, o`qituvchidan, albatta, chuqur bilim, izlanish, fidoiylilik hamda katta tajriba talab etadi. Zero, yosh avlodni, chuqur bilimli, mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash boshlang`ich sinf o`qituvchilari zimmasidadir.

Bugungi kunda ta`lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o`quvchining muayyan intellektual salohiyatini to`liq yuzaga chiqishiga olib keladi. O`qituvchi ta`lim samaradorligiga xizmat qiladigan ijobiy tajribalarni o`rganmay turib, biron-bir muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Ona tili va o`qish darslaridagi tarqatma materiallardan foydalanish ustida ishlash jarayonini takomillashtirish hozirgi davrdagi dolzarb vazifalardandir. Bu holat bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligini ko`rsatuvchi dalillardan biri desak, xato qilmagan bo`lamiz.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi : 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish orqali o`quvchilar nutqini rivojlantirishning samarali metodlari va usullarini aniqlash bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari : 2- sinf ona tili va o`qish darslarida o`quvchilar nutqini o`stirishning, xususan, tarqatma materiallardan foydalanishning psixologik va metodik asoslarini belgilash; tarqatma materiallardan foydalanishning ilmiy asoslangan, amaliyotda tekshirib ko`rilgan eng samarali yo`llari, usullari va bular bo`yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishni samarali tashkil etish jarayonidir.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishning ilmiy asosini va topshiriqlar tizimini

ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi: 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishning ilmiy asosi va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilsa, boshlang`ich sinflarda “Ona tili” dasturi takomillashtirilsa, “Ona tili” darsliklari, o`quv qo`llanmalari va didaktik materiallar mazmuni shunday so`zlar bilan boyitilsa, o`quvchilar nutqini faollashtirishga qaratilgan mashqlar tizimi va tarqatma materiallardan foydalanish tizimi ishlab chiqilsa, bularning o`quvchilar nutq madaniyatini shakllantirishdagi o`rni, nutqning ta`sirchanligini oshirishdagi ahamiyati ko`rsatilsa, o`quvchilarda muomala odobi shakllanadi, ularda chiroyli so`zlash madaniyati yuzasidan ilk tushuncha va malakalar hosil bo`ladi, bolalarning tevarak - atrofni aniq, to`g`ri har taraflama idrok etishlari ta`minlanadi; binobarin, darslarning samaradorligini bir pog`ona yuqori ko`tarish imkoniyati yuzaga keladi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi: O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, davlat hujjatlari, shuningdek, boshlang`ich ta`lim bo`yicha Davlat ta`lim standartlari, “Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi”, ona tilidan o`quv dasturlari, maktab darsliklari, boshlang`ich sinflarda maktab darsliklarini yaratish mezonlari, pedagogika, psixologiya va ona tili o`qitishning nazariy asoslarini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari: 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishga doir psixologik va metodik adabiyotlarni o`rganish va ular yuzasidan nazariy mushohada yuritish;

- dastur va darsliklarni tahlil qilish;
- 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish bo`yicha darslarni kuzatish va tahlil qilish;
- o`quvchilar so`z boyligi va nutqini o`rganish, unga tavsif berish;
- o`qituvchilar bilan suhbatlar o`tkazish, ilg`or ish tajribalarini o`rganish va umumlashtirish;
- -o`qituvchilarga mo`ljallangan savolnomalar tuzish va javoblar

olish;

- -nazorat yozma ishlarini o`tkazish va ularni tahlil qilish;
- tajriba - sinov materiallarini tayyorlash va uni o`tkazish;
- tajriba - sinov ishlarining natijalarini tahlil qilish va xulosalar

chiqarish.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi: 2-sinf ona tili va o`qish darslarida turli xil tarqatma materiallardan foydalanildi, o`quvchilarga beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko`nikmalar tizimi belgilandi, 2 - sinf o`quvchilarini ona tili darslarining, subekti-faol ishlovchisiga aylantirish yo`llari ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishida quyidagi xulosalar himoyaga chiqarildi:

❖ 2- sinf ona tili darslarida ta`limning mazmunini kommunikativ tamoyil asosida qurish;

❖ 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish orqali o`quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o`z fikrini mustaqil bayon qilishga o`rgatish;

❖ ona tili ta`limining mazmunini Davlat ta`lim standartlari talablari (o`qitish texnologiyasi, o`zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi)ga bo`ysindirish;

❖ ona tili darslarida 2-sinf o`quvchilarini ta`lim jarayoning faol ishlovchisiga aylantirish.

Tajriba sinov maydoni: Tajriba - sinov ishlari Navoiy shahridagi 10- 5- maktablarda olib borildi. Tajriba - sinov ishlariga 120 nafar o`quvchilar jalb etildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, tajriba - sinov ishlari, asosiy adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I bob. 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishning metodik asosi

1.1. 2-sinf ona tili va o`qish darslarining maqsad va vazifalari

O`zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Ta`lim to`g`risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo`nalishlarini belgilab berdi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta`limni tubdan isloh qilishning asosiy yo`nalishlari ko`rsatib berilgan. Unda: “Uzluksiz ta`lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma`naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi”⁷, - deb ko`rsatilgan. Shuningdek, dasturda qo`yilgan maqsadga erishish yo`llari ham ko`rsatilgan. Ta`lim berish ilg`or pedagogik texnologiyalarining zamonaviy o`quv- uslubiy majmualarini yaratish va o`quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta`minlash umumiy o`rta ta`limning asosiy shartlaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, tarqatma materiallar, ilg`or pedagogik texnologiyalar ta`lim jarayonining ta`sirchanligini oshiradi, o`quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o`quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o`zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko`nikma va malakalarini shakllantiradi. Davlat ta`lim standartlari talabi ham bu sohada katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, davlat ta`lim standartlari Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari asosida tuzilgan bo`lib, unda mutaxassislar tayyorlashda umumjahon talablari asos qilib olingan. Standart talablari asosida ta`lim jarayonida ilg`or pedagogik texnologiya talablariga asoslanish, ta`limni jahon taraqqiyoti darajasida tashkil qilish imkoniyati mavjud. Maktabda bolalarni o`qishga o`rgatishdan maqsad og`zaki nutq yuzasidan o`quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, ishlab chiqarishning, hayotning hamma sohalarida faol ijodiy faoliyat ko`rsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab yetishtirishdir. Umumiy ta`lim maktablarining asosiy vazifalari yosh avlodga fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish, ularni amalda qo`llash malakalarini hosil qilishdir⁷.

⁷Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент “Шарқ” нашриёти, 1998, 43-бет.

Boshlang'ich ta'limda ona tili predmeti bolani mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, ularning tilning kommunikativ (aloqa-aralashuvga xizmat qilishi) vazifasini; o'z fikrini mantiqiy izchillikda bayon qilish, o'zgalar nutqini eshitish orqali anglay olishlariga xizmat qiladi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida 2-sinf ona tili darslarining maqsad va vazifalari, ona tili darslari o'quvchilar nutqini so'zlar bilan boyitishga mas'ulligini hisobga olgan holda lug'at ustida ishlash, o'quvchilarning savodxonligini oshirishga qaratilgan imloviy mashqlar xususida metodik tavsiyalar berildi. Shuningdek, darsda o'quvchilarning faolligini oshirishga, fikrlash orqali o'zlashtirishlarini ta'minlashga e'tibor berilgan holda dars namunalari ishlab chiqildi. Ularda o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga, til ma'nolarini to'g'ri anglashlariga, ham og'zaki, ham yozma nutqlarining savodli bo'lishiga, matndan to'g'ri nusxa ko'chirib yozish, eshitib va yoddan yozishga o'rgatish; tarqatma materiallardan samarali foydalanishga; Vatanimizning istiqloldan keyingi taraqqiyoti, o'tmishi, milliy urf-odatlarini, tarixiy siymolari haqida bilim berish, umuman, borliq va jamiyat haqidagi mavjud bilimlarini yanada boyitish maqsad qilib olindi. Bularni amalga oshirishda ona tili ta'limining turli metodlaridan, metodik ish turlaridan foydalanildi. Ular o'quvchini o'ylashga, izlanishga, xulosalar chiqarishga undaydi, ona tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Birinchi sinfda ona tilini o'qitish o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya'ni to'g'ri o'qish va yozish)ga, fonetika, leksika, so'z yasalishi, grammatikaga oid bilimlarni o'rganish uchun zamin yaratishga xizmat qilmog'i lozim. Ona tili darslarida o'quvchilar "Tovushlar va harflar", "Bo'g'in" "So'z ma'nosi", ("Shaxs va narsani bildirgan so'zlar", "Belgini bildirgan so'zlar", "Harakatni bildirgan so'zlar", "Sanoq va tartibni bildirgan so'zlar") "Nutq va gap" kabi bo'limlar asosida tilga oid elementar bilimlarni egallaydilar. Bunda, asosan, grammatik tushunchalarni amaliy o'rgatishga e'tibor qaratilgan. O'quvchi mashq matnini o'qish va yozish jarayonida grammatik tushuncha va qoidalarni amaliy bajarib boradi va keyingi sinflarda bu qoida va tushunchalarni nazariy o'rganishga zamin yaratadi.

Asosiy diqqat bolaning nutqi va lugʻat boyligini oshirish, imlo savodxonligini tarkib toptirish, yaʼni toʻgʻri oʻqish va yozish koʻnikmasini shakllantirish, ona tili darslarini samarali tashkillashtirishga qaratiladi. Shuningdek, ona tili darslarida oʻquvchilarning chiroyli yozuviga eʼtibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Chunki birinchi sinfdan boshlab oʻquvchilarning chiroyli yozuviga eʼtibor qilinsa, yuqori sinflarda va hayoti davomida inson did bilan chiroyli yozish malakasiga ega boʻladi.⁹

Oʻqituvchi oʻquvchilarni har qanday vazifani ongli bajarishga maxsus oʻrgatadi. Shu maqsadda darslikda birinchi uchragan mashqlarni bajarish uchun shu mashq topshirigʻini nechta qismdan iboratligini va ularni qaysi tartibda bajarish zarurligini oʻquvchilarga tushuntiradi. Mashqni sinfda yoki uyda bajarganda avval nima qilish kerakligini, topshiriqlarni bajarish tartibini aniqlab olish va tavsiya qilingan tartibda bajarish zarurligi uqtiriladi; oʻquvchilar oʻzlari bajargan ishlarning toʻgʻriligini tekshirishga oʻrgatiladi. Mashqlarni ongli bajarish bilan oʻquvchilar mashqni nima uchun, qanday maqsadda ishlaganlarini va u nimalarni oʻrgatishini tushunadilar.

Bu sinfda oʻquvchilar avval grafik shakli talaffuziga mos boʻlgan soʻzlarni yozishni bilib oladilar. Soʻzlarni harflarni tushurib qoldirmay yoki oʻrnini almashtirmay yozishga oʻrgatish tilni oʻqitishda muhim vazifa hisoblanadi. Fonetik bilim va koʻnikma grafik koʻnikma uchun asos boʻladi. Shuning uchun yozuv malakasini shakllantirishda fonetik material amaliy yoʻnalishda oʻrgatiladi. Shularni hisobga olib darslikda koʻp mashqlar: 1) 10 soʻz yoki gap yozishga tayyorlash (eʼtibor bilan oʻqish aniq talaffuz qilish); 2) izohlab yozish; 3) darslikdan tekshirish kabi bosqichlarni oʻz ichiga oladi.

Oʻquvchilarni xatboshini idrok qilishga, xatboshidan yoza olishga oʻrgatish, ona tili darslarini birinchi kunidayoq bu koʻnikmani mustahkamlab borish talab qilinadi. Oʻquvchilar bilimni nazorat qilish maqsadida taʼlimiy, keyinroq oʻquvchilar saviyasiga mos tekshirish dektantlari oʻtkazish rejalashtirilgan. Diktant yozdirilgach, uni, albatta tekshirib, oʻquvchilar yoʻl qoʻygan kamchilik va xatolar

⁹ Gʻulomova X., Gʻaffarova T. 1-sinfda ona tili darslari. Oʻqituvchi kitobi. Toshkent. "Sharq". 2003, 5-bet.

aniqlanadi, xatolar guruhlarga ajratiladi va yoʻl qoʻyilgan xatolarni toʻgʻirlashga, ayrim xatolarning oldini olishga yordam beradigan mashqlar tayyorlanadi;keyini ona-tili darsining ikkinchi qismidan 20 daqiqa vaqt (ayrim hollarda bir dars) ajratib, diktant tahlili va xatolar ustida ishlash mashgʻuloti oʻtkaziladi. Dasturga koʻra 1-2-sinflarda oʻquvchilar yozgan mashqlarning barchasi tekshirilishi zarur. Aks holda darslarning samarasi boʻlmaydi.

Kichik yoshdagi oʻquvchilarga ona tilini samarali oʻrgatish uchun ularni tilni oʻrgatishga qiziqtirish,ularning oʻquv faoliyatini faollashtirish va aqliy faoliyatlariga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish, xususan oʻquvchilarga materialni oʻzlashtirish usullarini oʻrgatish zarur.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qoʻllash bugungi kun talabi.

Shu maqsadda bir necha yaxlitlashtirilgan (integralashtirilgan) dars turlaridan namunalar berildi.

Darslarda test savollari.tarqatma materiallarni qoʻllash taxminiy berildi. Har bir oʻqituvchi oʻz imkoniyati, maqsadidan kelib chiqqan holda ularni qoʻllash oʻrinlarini oʻzgartirishi mumkin.

Dastur materiallarining oʻquv yiliga taxminiy taqsimoti.

(Haftada 4 soatdan. 34 haftada 136soat)

1 chorak (36 soat). Takrorlash. Tutiq belgisi. Oʻzbek alifbosi.

2 chorak (28 soat). Nutq. Matn. Gap. Soʻz va boʻgʻin. Boʻgʻin koʻchirish. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar.Ularni harf bilan ifodalash. Aytilishda tushib qoladigan undoshlar. Soʻz ichida ketma-ket kelgan bir xil undoshlar.

3 chorak (40 soat). Soʻz ichida ketma-ket kelgan bir xil undoshlar.

Narsa va shaxs nomini bildirgan soʻzlar. Kishlarning ismi va familiyasi, hayvonlarga qoʻyilgan nom, shahar qishloq, koʻcha daryo nomlarida bosh harf. Narsa va shaxs harakatini bildirgan soʻzlar.

4 chorak (32 soat). Narsa va shaxs belgisini bildirgan soʻzlar. Sanoq va tartibni bildirgan soʻzlar. Gap. Boʻgʻin. Bogʻlanishli nutq. Yil oxirida takrorlash.

Darslarda o`quvchilarning til materiallarini oson o`zlashtirishlarini, grammatik tahlilni sodda, aniq yo`llar bilan amalga oshirishlari uchun turli jadvallardan foydalaniladi.

Ona tili darslarini tashkil etishda o`quvchini fikrlashga, mulohaza yuritishga undovchi, taqqoslash va kuzatishga asoslangan holda xulosa chiqarishga yo`llovchi, tahlilni muayyan izchillikda amalga oshirishni ta`minlovchi topshiriqlar beriladi.

Har bir mavzu bo`yicha beriladigan topshiriqlar sistemasi shunday tuzilganki, ular grammatika, imlo va o`quvchilarning bog`lanishli nutqini o`zaro bog`liqlikda, muayyan izchillikda o`rgatishni ta`minlaydi.

Ishning o`ziga xos tomoni yana shundaki, har bir mavzudan so`ng o`quvchilar bilimini mustahkamlash uchun tarqatma materiallardan foydalanishga oid amaliy ko`rsatmalar berildi. Bu dars uchun savol va topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Bular o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan bilimlar hajmini belgilashga, o`quvchilarning o`z bilimlarini o`zlashtirish darajalarini aniqlash va tekshirishga yordam beradi.

Ona tili darslarida o`quvchilarni qiziqtiradigan borliq, tabiat hodisalari, hayvonot va o`simliklar dunyosi, vatanimiz o`tmishi, buyuk ajdodlari haqida, tengqurlari haqida ma`lumot beruvchi matnlar, gaplar, mazmunli rasmlar berildi. Bolalar yozuvchi va shoirlari ijodidan namunalar tanlashda ham matnning soddaligiga, yengil hajv bilan yozilganiga, matnlarda bola uchun yangi so`zlar bo`lishiga, ular ustida rasmlar asosida ishlashga e`tibor qaratildi. Masalan, o`quvchi qush so`zini yoki kundalik hayotida har kuni ko`rib turgan qushlar nomini biladi, lekin son-sanoqsiz qushlar mavjud, ular nomini va ularning o`zini asta-sekin taniy borishiga e`tibor berilmas edi. Biz shu narsaga alohida diqqatni qaptdik.

O`qituvchilar o`z tajribalari asosida darslarni yanada samaraliroq tashkil etishlari mumkin. Lekin barcha darslarda ham quyidagi qismlar bo`lmog`i lozim (Tekshirish darslaridan tashqari):

- 1 .O`quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

- O`quvchilarning o`tgan darsni o`zlashtirish darajasini aniqlash, uy vasifalarini tekshirish.

3. O`quvchilarning yozuv malakalarini takomillashtirish ustida ishlash. Husnixat mashqlari.

- 4. Mavzu yuzasidan savol-javoblar o`tkazib, bilimlarni mustahkamlash.
- 5. Quvnoq daqiqa.
- 6. Dars mavzusi va maqsadini e`lon qilish. Uni tushuntirish.
- 7. Lug`at ishi.
- 8. Mashqlar orqali o`quvchilar bilimini mustahkamlash.
- 9. Didaktik o`yinlardan foydalanish orqali o`quvchilar bilimini mustahkamlash va o`qish malakalarini o`stirish.
- 10. Tarqatma materiallardan foydalanish orqali o`quvchilarning bilimlarini mustahkamlash.
- 11. Uyga vazifa berish va uni bajarish yo`llarini tushuntirish.
- 12. Darsda o`rganilganlarni umumlashtirish va darsni yakunlash.

Darsning bu qismlari dars turlariga qarab turlicha metod va usullarda tashkil qilinadi. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi fanining predmeti o`quvchilarga o`zbek tilini o`rgatish yo`llari va vositalari, ona tilini egallash, ya`ni nutqni, o`qish va yozishni, grammatika va imloni o`zlashtirib olish to`g`risidagi ilmdir.

Ma`lumki, DTSida belgilab berilgan ona tili ta`limi mazmuni aniq mavzular va til materiallari asosida dastur va darslikda o`z ifodasini topadi. Ular biri ikkinchisining ijrochisi bo`lib, bir-biriga muvofiq kelishi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, 2-sinf ona tili mazmuni metodist olimlarning ko`p yillik kuzatishlari, tajribalari, tajriba natijalarining tahlili asosida takomillashtirib kelinmoqda. Ayniqsa, ona tilining ahamiyatiga alohida e`tibor qaratilmoqda.

O`qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O`qishni bilmagan odamning ko`zi ojiz kishidan farqi yo`q. O`qish faoliyati boshlang`ich sinflarda barcha predmet darslarida amalga oshiriladi, lekin o`qishga o`rgatish o`qish darslarining

asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o`quvchini o`qishga o`rgatishda ularning umumiy rivojlanishini, psixologiyasini hisobga olish zarur. O`quv materiali hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o`qishni tashkil etish bolani o`qish mashg`ulotidan bezdiradi.

O`quvchilarni qiziqarli topshiriqlar, tarqatma materiallar asosida o`qitish o`qishga o`yin tusini beradi. Bola o`ynab charchamagandek, o`qib charchaganini sezmaydi.

2-sinfda o`qish darslari bir qancha vazifalarni bajaradi: O`quvchilar asar mazmunini to`g`ri idrok etishlari, bilimlarni mukammal egallashlari uchun hayot haqida ma`lum tasavvurga ega bolishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o`tkaziladi.

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

1. O`quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishiga ta`sir etadigan yangi ma`lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni o`quvchilar o`z hayotida kuzatganlari bilan bog`lay olishlariga sharoit yaratish.

2. Yozuvchining hayoti bilan elementar tarzda tanishtirish, yozuvchiga, unung hayotiga, ijodiga qiziqish uyg`otish.

3. O`quvchilarni asarni emotsional idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga xalal beradigan so`zlarning lug`aviy ma`nolarini tushuntirishdan iborat⁹.

Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo`lib, o`qituvchi asar mazmuni va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davri uchun 2-5 daqiqa ajratiladi.

Ekskursiya. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag`ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, yil fasllari, bahor, yoz, shahar, qishloq hayotiga doir mavzular o`rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, «Bahor», «Navro`z bayrami», «Komputer», «Yoz», Amir Temur, Alisher Navoiyga bag`ishlangan materiallarni o`rganilishidan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiq. Ekskursiya uchun reja beriladi va matn o`rganilishidan kamida bir hafla oldin o`quvchilarga e`lon

qilinadi.

Film namoyish qilish. Inqilobdan oldingi hayot voqealari tasvirlangan matnlardan oldin film namoyish qilinsa, o`quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi. Hozir o`quv filmlari yetarli emas. Ammo videofilmlardan foydalanish mumkin.

O`qituvchi hikoyasi. Asar muallifi haqida ma`lumot berishi eng samarali metod hisoblanadi. Biror shoirning she`ri o`rganilayotganda unung bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilib, ular haqida qisqacha ma`lumot berilsa, o`quvchilarning asarni o`qishga qiziqishlari ortadi. Tayyorgarlik davridan so`ng 1-bosqich amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish jarayonida asarning aniq mazmuni bilan, uning syujet chizig`i bilan tanishtirish, asarning emotsionai ta`sirini aniqlashdir.

Matn ifodali o`qib beriladi. O`qituvchi o`quvchilarga umumiy taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi.

Hikoyaning qaysi o`rni sizga yoqdi?

- Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?

Hikoya o`qilganda siz qaysi o`rinda juda xursand bo`ldingiz? kabi savollar beriladi.

O`quvchilarning borliq, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, bilimlarini ma`lum bir tizimga solish va boyitish, dunyoqarashini shakllantirishdir.

Bo`gin tuzilishi murakkab bo`lmagan so`zlarni bo`g`inlab to`g`ri o`qish. Bolalar hayoti bilan bog`liq bir bo`g`inli, ikki bo`g`inli so`zlarni sidirg`a o`qishlariga erishish. Buning uchun o`qituvchi o`qiladigan asar matnini o`rganish jarayonida o`qilishi qiyin o`rinlarni :belgilashi va o`qishni differensial usulda tashkil etishi, ya`ni o`qilishi qiyinroq o`rinlarni yaxshiroq o`qiydigan o`quvchilarga, oson o`qiladigan o`rinlarni o`qish malakasi bo`sh o`quvchilarga o`qitishni mo`ljallashi lozim.

Bo`g`in tuzilishi murakkab so`zlarni kartonga yoki xattaxtaga bo`g`inlarga bo`lib yozish, jo`r o`qitish usuludan foydalanish, so`z ma`nosini izohlash yoli bilan to`g`ri o`qishni amalga oshirish kerak.

O`quvchilar to`g`ri, ongli o`qishni egallagan taqdirdagina ifodali o`qiy oladilar. Ifodali o`qishga o`rgatish o`qishga o`rgatish bilan bir paytda amalga oshiriladi. O`quvchilari o`qishni bilishni namoyish etish maqsadida qichqirib o`qiydi. Bu o`quvchi sog`lig`iga salbiy ta`sir etadi, eshituvchini charchatadi. Qichqirish tufayli o`quvchining nafasi yetmay, o`qishni oxirigacha davom ettira olmaydi. Shuni hisobga olgan holda o`qituvchi o`quvchilarga nafasni to`g`ri olish va to`g`ri sarflash namunasini ko`rsatishi, tovushlarning to`g`ri artikulyatsiyasini o`rgatishi, adabiy talaffuz normalari haqida elementar ma`lumot berishi lozim. Ifodali o`qishga o`rgatishda avvalo o`qituvchi o`zi ifodali o`qish namunasini ko`rsatishi kerak. Ifodali o`qish ko`rgazmalilikdir, deydi metodist olimlar.

Ifodali o`qishga o`rgatish, birinchidan, asar qahramonlarining xatti-harakatini tahlil qilishni, badiiy til vositalari vazifasi va ma`nosini tushuntirishni, ikkinchidan, asar matnidagi pauzalarning o`rnini, nutq tempini belgilashni, uchinchidan, o`qishni mashq qilishni taqozo etadi. O`qish darslari shu tarzda o`quvchida kitobga, kitob o`qishga muhabbat uyg`otishi zarur.

O`qish darslarida asarda yozuvchi aytmoqchi bo`lgan fikr - g`oyani ochish o`quvchini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Chunki o`qish darslarining asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarni axloqiy, estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashdir.

Badiiy asar voqealari til vositasida reallashadi. Asar tahlilida asar tilini o`rganish o`quvchilar lug`atini boyitadi, nutqini o`stiradi. Dars ishlanmalarida bunga alohida e`tibor berildi. O`qituvchi ham sinf o`quvchilarining saviyasidan kelib chiqib, asar tili tahlilini chuqurroq, kengroq ko`lamda uyushtirishi mumkin.

O`qish darslarida asar tahlili bilan bog`liq har bir ish o`quvchi shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, ona tili va o`qish darslarining asosiy maqsadi har tomonlama etuk, barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

1.2. 2-sinf o`quvchilarining ona tili va o`qish fanidan bilim, ko`nikma va malakalariga qo`yilgan asosiy talablar

“Ta`lim to`g`risida»gi Qonunda ta`limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta`lim va tarbiya tizimining uzluksizligi, ilmiyligi va dunyoviyligi, ta`limda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarning ustuvorligi, davlat ta`lim standartlari doirasida hammaning bilim olishi uchun imkoniyat yaratilishi bilan belgilanishi bejiz emas.

2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish bo`yicha beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko`nikmalar deganda biz o`quvchilarning kundalik muloqat - muomala madaniyati hamda ona tilida ish yuritish uchun xizmat qiladigan bilim, malaka va ko`nikmalar tizimini tushunamiz. Demak, bog`lanishli nutqni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bilim, malaka va ko`nikmalar tizimi belgilangan mavzular bo`yicha egallangan zaruriy bilim, malaka va ko`nikmalar tizimidir. 2-sinf o`quvchilarining bog`lanishli nutqini shakllantirish va rivojlantirish uchun esa so`zning ma`nosini tushunish, uni to`g`ri va o`rinli qo`llash, gapni grammatik jihatdan to`g`ri shakllantirish, talaffuz me`yorlari va gap ohangiga rioya qilish singarilar muhim ahamiyatga ega. Bog`lanishli nutq uchun o`ta zarur bo`lgan dastlabki malaka va ko`nikmalar o`quvchilarga avvalo 1-sinf dan boshlab singdiriladi.

«O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta`lim to`g`risida»gi Nizomda ta`kidlanganidek: «Boshlang`ich ta`lim o`qish, yozish, sanash, o`quv faoliyatining asosiy malaka va ko`nikmalari, ijodiy fikrlash, o`zini-o`zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog`lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishini ta`minlashga da`vat etilgan».

Shu asosga ko`ra, boshlang`ich sinflarda o`quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko`nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim.

Boshlang`ich ta`lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o`z-o`zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog`lom bo`lishga, moddiy borliq go`zalliklarini his eta olishga, go`zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy

urf-odatlarni o`zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o`rgatadi.

Boshlang`ich ta`lim bosqichi oldiga qo`yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta`lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta`lim standarti asosida davlat boshlang`ich sinf o`quvchilaridan standartda belgilab qo`yilgan ko`rsatkichlarga erishishni talab qiladi va o`z navbatida, bu ko`rsatkichlarga erishish uchun zarur bo`lgan ta`limiy xizmatlar va vositalar bilan ta`minlaydi.

Boshlang`ich ta`lim davlat standarti o`quv predmetlari bo`yicha emas, balki ta`lim sohalari bo`yicha belgilandi. Ta`lim sohalari bo`yicha standart ko`rsatkichlari 7(6)-11 yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy talab taqozo qilgan ta`lim mazmunining miqdoriga asoslanib belgilanadi. Boshlang`ich ta`lim davlat ta`lim standartining belgilanishi shu bosqichda ta`lim mazmuni ko`lamini chegaralash, ta`lim sohalarini integratsiyalash imkonini beradi. Davlat ta`lim standartini belgilash boshlang`ich ta`lim mazmunini konseptual asosga tayangan holda modernizatsiyalash (davr talablari nuqtayi nazardan yangilash)ni ko`zda tutadi .

Davlat ta`lim standarti boshlang`ich ta`lim jarayoni oldiga qo`yilgan ijtimoiy talabga asoslangan holda o`quvchilar egallashlari lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarga qo`yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu esa, o`z navbatida, o`quvchilarning egallagan bilim, ko`nikma va malakalarini baholash mezonlarini belgilashga imkon beradi. Boshlang`ich ta`lim standartining asosini davlat va jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ayni shu boshlang`ich sinf o`quvchilarida ko`nikma va malaka hosil qilishga qaratilgan ta`lim sohalarining mujassamlashgan parametrlari tashkil qiladi.

Boshlang`ich ta`lim standarti mazkur ta`lim bosqichining har bir ta`lim sohasi uchun belgilangan standart parametrlari, mazkur ta`lim sohasining modernizatsiyalashtirilishi, shu mazmunning tarkibiy qismlari, ta`lim jarayonining vosita va metodlari hamda umumpedagogik, psixologik, texnologik tizimi va darajasini belgilab berishga xizmat qiladi. Bunda butun e`tibor boshlang`ich ta`lim berishning maqsadi yuzasidan butunlik, uzviylik, tadrijiylik va to`laqonlilikni saqlab qolishga qaratiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichiga davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talabda ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi. Quyidagi pedagogik omillar ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni qo'llash uchun asos yarata oladi:

- boshlang'ich ta'lim jarayoniga kiritilgan har bir ta'lim sohasi bo'yicha belgilanadigan ta'lim mazmuniga mos tarzda o'quv materialining tadrijiy tarzda berilishini ta'minlash;
- ta'lim jarayonini ta'lim sohalarining maqsadiga bo'ysundirish va ta'lim sohalararo maqsadlar mutanosibligini ta'minlash;
- har bir ta'lim sohasi bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarida hosil bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq darajalarini hamda ta'lim natijasini baholash mezoniga qo'yiladigan talablarni boshlang'ich ta'lim standartining asosiy parametrlari bo'yicha ishlab chiqish.

Boshlang'ich ta'lim standarti ta'lim sohalariga qo'yilgan standart ko'rsatkichlarni mujassamlashtiradi. Standartning mezon va parametrlarini ta'lim sohalarida belgilab qo'yilgan ta'lim standartining ko'rsatkichlari tashkil etadi. Ta'lim sohalari bo'yicha ta'lim natijasining sifati xuddi mana shu ko'rsatkichlarga asoslangan holda aniqlanadi. Bu o'rinda, belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlar umumlashtiriladi hamda aniq o'lchov birliklarida ifodalanadi.

Davrning dolzarb talablari va jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib boruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanib, jahon tajribasiga tayangan holda O'zbekiston Respublikasidagi boshlang'ich ta'lim tayanch o'quv rejasi doirasiga ona tili, o'qish, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta'limi sohalari kiritiladi.

Ona tili o'qish ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini anglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda

bo`la olish ko`nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o`rinda ona tili ta`limiga o`quv fani emas, balki, butun ta`lim tizimini uyushtiruvchi ta`lim jarayoni sifatida qaraladi. Ona tili ta`limi standarti ko`rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o`z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o`rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi. Boshlang`ich ta`lim bosqichida o`quvchilarning ona tili ta`limi sohasi bo`yicha tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart mezon orqali aks ettiriladi: o`qish texnikasi, o`zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O`qish texnikasi bolaning savodxonlik, yozma nutq belgilarini, talaffuzda ifodalash ko`nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan.

Bu parametr orqali o`quvchining notanish bo`lgan matnni ifodali o`qiy olish ko`nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko`rsatkich sifatida ifodali o`qish tezligi, ya`ni berilgan matndan minutiga nechta so`z o`qiy olish ko`rsatkichi belgilangan. Sinf dan sinfga o`tish, miqdoriy ko`rsatkichdagi belgilar soni oshishi bilan birga, berilgan matnni o`qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Matn mazmunini anglash, o`zgalar nutqini eshitish va fikrini anglash malakasi o`quvchining og`zaki bayon qilayotgan o`zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametrning ko`rsatkichlari o`quvchi 10 minutda qancha sahifa matnni o`qishi, o`zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og`zaki qayta bayon qilish darajasini aniqlaydi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo`lib, ona tili ta`limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o`quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo`yicha ta`lim sifatining natijasini baholashda o`qituvchi tomonidan quyidagi ko`nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va h.k.);
- tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;

- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
- imloviy (yozma) savodxonlik.

Mazkur standart mezonlarining o`zaro uzviy bog`liqligi (integratsiyasi)ni nazarda tutib, o`qish ona tili ta`limida belgilangan vazifalarning amalga oshishida asosiy omil hisoblanadi.

Boshlang`ich ta`limda ona tili ta`limi mazmunining negizi quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- nutq va gap, nutq tovushlari, ona tilining fonetik tizimi: tovushlar va harflar, unli tovushlar va harflar, undosh tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undoshlar, alifbo, bosh va kichik harflar, tutuq belgisi (fonetik tahlil);
- bo`g`in va bo`g`in tuzilishi, so`zlarni bo`ginlab ko`chirish;
- so`z va so`z ma`nolari (lug`aviy tahlil-bir ma`noli so`zlar, qarama-qarshi ma`noli so`zlar, ko`p ma`noli so`zlar);
- so`z tarkibi: o`zak va qo`shimcha (turlovchi va yasovchi), o`zaklarda tovush o`zgarishi, o`zak va qo`shimchalar imlosi;
- so`z-nomlarni mazmuniga ko`ra guruhlash: predmetlar nomini bildiruvchi so`zlar, predmetlarning harakatini, belgisini, sanog`ini bildiruvchi so`zlar, predmetga ishorani ifodalovchi so`zlar (shaxsga nisbatan - kishilik olmoshi);
- gap, gapning fikr bildirish maqsadiga ko`ra turlari (darak, so`roq, buyruq va his-hayajonni bildiruvchi gaplar), gapda tinish belgilarining ishlatilishi (nuqta, so`roq, undov va h.k.), yozma nutqda ishlatiladigan muhim (ayrim) belgilar : vergul, qavs, ikki nuqta, ko`p nuqta;
- gapning tuzilishi: gapning asosiy mazmunini bildiruvchi bo`laklar (ega va kesim), asosiy mazmunini to`ldiruvchi bo`laklar (ikkinchi darajali bo`laklar - ularning turi va nomlaridan mustasno);
- gapda so`zlarning o`zaro bog`lanishi, so`zlar birikmasi (ega va kesim munosabatidan mustasno), gapning uyushiq bo`laklari, ularning o`zaro bog`lanishi (ohang, bog`lovchi so`z yordamida);
- gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr

bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xat boshi, dialog, monolog gaplar, bayon, kichik insho, og`zaki, yozma ijodiyot;

- xabarnoma, xat, maqola, tabriknoma, taklifnoma, e`lon, tushuntirish xati yozish, ro`yxat tuzish.

Boshlang`ich ta`limda ona tili ta`limi tarkibidagi o`qish mazmunining negizi quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- o`zbek bolalar yozuvchilari asarlari;
- mavzu doirasi: Vatan, vatan o`tmishi, hozirgi taraqqiyoti, kelajagi, buyuk allomalar, tarixiy shaxslar, xalq qahramonlari, ilm-fan, ma`rifat, madaniyat, tengdoshlari hayoti, mavsumiy o`zgarishlar;
- janriy xususiyatlari: hikoya, ertak, maqol, topishmoq, tez aytish, she`r, masal, latifa, lof, ilmiy-ommabop asarlar;
- kitob bilan ishlash;
- so`zlarni to`gri talaffuz qilish; bo`ginlab o`qishdan ongli, sidirg`asiga, tez, to`gri, ravon va ifodali o`qishga erishish;
- kichik hajmli bir necha she`ni yod olish;
- yozuvchilarning ismi-sharifi, asarlarining nomlari haqida to`laroq tushuncha hosil qilish;
- badiiy asarlarni sharhli, ijodiy va ifodali o`qish;
- asar syujeti voqealari o`rtasidagi bog`lanishni, qahramonlarning fe`l-atvorlarini aniqlash, qiyosiy tavsiflash;
- o`qigan asarlari yuzasidan o`z fikr-mulohazalarini ogzaki va yozma tarzda izchil ifodalash;
- so`z boyligini oshira borish va nutqida faol qo`llash;
- o`qigan asarlari yuzasidan mustaqil reja tuzish;
- badiiy asarlarni estetik tahlil qilish;
- o`qigan asarlari yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish;
- nasriy asar mazmunini to`liq, qisqartirib, shaxsini o`zgartirib hikoyalash;
- badiiy asarlarni o`zaro qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish.

O`quv yili yakunida 1-sinf o`quvchisining majburiy tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablar:

Bilim:

- Nutq, og`zaki va yozma nutq;
- gap, so`z va bo`g`in;
- tovush va harf, ularning belgilari;
- unli va undoash tovushlar;
- alifbo;
- so`z ma`nosi (shaxs, narsa, belgi, harakat, miqdor bildiruvchi so`zlar);
- gap va matn.
- hikoya, she`r, ertak, topishmoq, maqol, rivoyat, tez aytish janrlarini bilish;
- she`riy va nasriy asarlarni farqlash;
- badiiy asar mavzusini anglash.

Ko`nikma:

- tovush va harfni farqlash;
- o`zbek tilidagi 30 ta tovush, 29 ta harf va 3 ta harf birikmasi borligini

bilish;

- harflarni yozish, to`g`ri shakllantirish;
- tinish belgilarini to`g`ri shakllantirish;
- harflarni zarur o`rinda qo`l uzmasdan yoza olish;
- so`zlar orasidagi oraliqni to`g`ri belgilash;
- so`z ma`nolarini farqlash va ularga so`roq bera olish;
- shaxslarga, joylarga, hayvonlarga atab qo`yilgan nomlarda bosh harfni

yoza;

- gaplarni amaliy ifoda mazmuniga ko`ra farqlash;
- gaplarni ohangiga rioya qilib o`qish va yozma to`g`ri shakllantirish;
- matndagi gaplarning mazmunan o`zaro bog`liqligi va aloqadorligi,

ko`rsatilgan mavzu doirasida birlashishini anglash;

- diktant turlari: ta`limiy diktant; lug`at diktant, izohli diktant, rasmiy diktant, saylanma diktant va b.; nazorat diktantlarini farqlash;

- soʻzga maʼnodosh, qarama-qarshi maʼnoli soʻz topa olish;
- soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolarini farqlash;
- taklifnoma, tabriknoma, eʼlon yoza olish.
- oʻqilgan matndagi soʻzlarning maʼnolarini isohlay olish;
- oʻqilgan matn mazmunini koʻrgazimlar vositasida toʻliq qayta

hikoyalash;

- tayyor reja asosida asarni toʻliq qayta hikoyalay olish;
- asar qahramonlarining xatti-harakatlarini aniqlash va elementar

baholay olish. Malaka:

- 15-20 soʻzdan iborat diktant yoza olish;
- husnixat qoidalarini asosida yozish;
- oʻrganilgan bilimlar doirasida imlo xatolarga yoʻl qoʻymaslik;
- matnning mantiqiy izchilligiga rioya qilish;
- 2-3 gapdan iborat sodda matnni (fikir ehtiyoji bilan bogʻliq mavzu asosida)

yaratish.

- soʻz tarkibida tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish;
- soʻzlarni boʻgʻinlab toʻgʻri oʻqish;
- hikoya, sheʼr, ertak, topishmoq, maqol, rivoyat, tez aytish janrlaridagi

asarlarni ifodali oʻqish;

- minutiga 25-30 soʻzni oʻqish;
- oʻqigan asari yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini elementar bildir

olish;

- oʻquv yili yakunida 5 ta sheʼrni yoddan aytib bera olish.

Matnning xarakteri:

- oʻquvchiga tanish boʻlgan va koʻz oldiga keltira oladigan buyum, manzara, voqea-hodisalar tasviri;

- ruxsat soʻrash, iltimos, minnatdorchilik kabi nutq madaniyatiga doir murojaat qoidalarini bilishi.

2-sinf ona tili va oʻqish darslarida belgilangan mavzularni oʻrganishda oʻquvchilarda avval amaliy koʻnikmalar, keyin nazariy bilimlarni oʻquvchilarga

yetkazish uchun turli tarqatma materiallardan, savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Bilimlarni o`rganish jarayoni darslik materiallari, o`quvchilarning nutq tayyorgarligi bilan uzviy bog`langan holda olib boriladi. Bu ishlar darslarning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga muammoli darslarni tashkil qilishda o`quv materialini o`rganishga ko`p vaqt ketadi. Shuning uchun o`qituvchi vaqtni ratsional taqsimlashi, ba`zi ikkinchi darajali narsalarga e`tibor bermasdan, mashg`ulotni yangi mavzuni o`rgatishdan boshlashi lozim bo`ladi. Ona tili va o`qish darslarida mavzularni o`rgatish bo`yicha olingan bilimlarni mustahkamlash uchun “Ijodkorlar bellashuvi” o`tkazish ko`zda tutiladi.

Bellashuvda mavzu asosida tarqatma materiallar tarqatilib, mavzu bo`yicha savollarga javob berish, gapning chegarasini aniqlash, ma`lum bir mavzuda xatosiz va chiroyli yozish singari muammolar bo`yicha guruhlararo bellashuv o`tkazish maqsadga muvofiqdir.

2-sinf ona tili va o`qish darslarida o`rganilayotgan mavzularni yanada mustahkamlash uchun “Tarqatma materiallar olamiga sayohat” dars mashg`ulotlari o`tkaziladi. Dars mashg`ulotida o`quvchilar o`qituvchi rahbarligida tarqatma materiallar olamiga sirtqi sayohatga chiqadilar. Sayohat jarayonida o`quvchilar bir necha to`siqqa duch keladilar (har bir o`quv topshirig`i bir to`siqdir.) Masalan, “Qaysi guruh belgini bildiruvchi so`zlar ishtirokida tez matn yaratadi ” kabi, o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlar ustida ishlash bo`yicha “Men tez va to`g`ri o`qiyman” mavzusida tarqatma materiallardan foydalanib, o`yin - musobaqa tashkil etsak ham samarali bo`ladi. Mavzu o`rganilib bo`lingandan keyin o`quvchilardan tarjimayi hol yozishni talab qilsak, ular qiynalmasdan yoza oladi.

Shunday qilib, 2-sinf ona tili va o`qish darslarida belgilangan mavzular bo`yicha tarqatma materiallar asosidagi zaruriy bilimlar shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko`nikmalarni, ijodiy faoliyat tizimini hamda o`qituvchi va o`quvchi orasidagi munosabatlarni o`z ichiga qamrab olgan.

1.3. 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish masalalari

O`qitishning ko`rgazmali metodlarini qo`llash Ya. A. Komenskiyning “Buyuk didaktika” asarida o`z ifodasini topgan ko`rgazmalilikning didaktik prinsipidan kelib chiqadi. o`quvchilar sezib idrok etishi mumkin bo`lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, ya`ni ko`rish mumkin bo`lgan narsalarni ko`z bilan ko`rib, eshitish mumkin bo`lgan narsalarni quloq bilan eshitib, hidi bor narsalarni hidlab ko`rib, ta`mini sezish mumkin bo`lgan narsalarni tatib ko`rib, ushlab sezish mumkin bo`lgan narsalarni bilib olishlari kerak”,- deb yozgan edi.

O`qitishning ko`rgazmali metodlarini barcha yirik pedagoglar ma`qullashgan va rivojlantirishgan. I. G. Pestalotssi bunday yozgan edi: “Mening eng muhim, boshlang`ich nuqtayi nazarim quyidagilardan iboratdir: tabiatning o`zini kishi tomonidan mushohada qilishi o`qitishning yagona haqiqiy poydevori hisoblanadi, chunki u inson bilimining yagona asosi hisoblanadi. Bundan keyin keladiganlarning hammasi ana shu hissiy idrokning shunchaki bir natijasi yoki mavhum tushunchasi hisoblanadi ”. Pestalotssi ko`rgazmalilik prinsipini ma`lum darajada boyitdi. U ko`rgazmalilikning zarurligini himoya qilish bilan bir vaqtda, sezgi organlari atrofimizdagi borliq to`g`risida tartibsiz ma`lumotlar olib keladi, deb hisoblagan edi. Ta`lim kuzatishlaridagi tartibsizlikni yo`qotish, buyumlarni aniq belgilab berishi, ularning bir turdagilarini va o`zaro yaqinlarini esa birlashtirishi, ya`ni tushunchani shakllantirishi kerak.

Ko`rgazmalilikning o`quv jarayonida nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi to`g`risida kundalik kuzatishlar va kishilarning kundalik ish tajribalarigina emas (yuz marta eshitgandan bir marta ko`rgan yaxshi), balki maxsus tajribalar ham guvohlik beradi.

Ko`rgazmali idrok katta imkoniyatlarga ega. Eslab qolishda ko`rgazmalilikning o`zi emas, balki ularning nutq va amaliy faoliyat bilan biriktirilishi eng yuqori samaradorlikka ega bo`ladi.

O`qitishda qo`llaniladigan ko`rgazmali vositalarga quyidagilar kiradi:

1. O`qituvchining namoyish qilishi, ekskursiya, sayr va hokazolar davomida

o`quvchilar tanishadigan asl holidagi tabiiy obyektlar.

- Real obyektlarni aks ettiruvchi maxsus tayyorlanadigan illyustratsiya-tasviriy vositalar-plakatlar, sxemalar, tarqatma materiallar, rasmlar, fotosuratlar.
- Ko`rgazmalilikning shartli-ramziy vositalari-kartalar, globuslar.
- Tabiiy-matematik yo`nalishdagi priborlar, modellar.
- Ko`rgazmalilikning texnik namoyish qilish vositalari-kino, diafilmlar, diapozitivlar.
- Tovush, ko`rish-eshitish vositalari-video yozuv.

Shundan ta`limning ko`rgazmali metodlarini ikki guruhga: illyustratsiya metodlari va namoyish qilish metodlariga ajratish mumkin.

Ilyustratsiya metodlariga-plakatlar, kartalar, chizmalar, sxemalar, tarqatma materiallar, rasmlar, fotosuratlar, jadvallar, grafiklar kiradi.

Namoyish qilish metodlariga-priborlar, dinamik qo`llanmalar, texnik namoyish qilish vositalari-kino, diafilmlar, diapozitivlar, tovush, ko`rish-eshitish vositalari kiradi.

Hamma maktab kabinetlarida plakat, tarqatma materiallar, karta va boshqa ko`rgazmali qurollarning turlari mavjud bo`lib, ular uchun maxsus joylar ajratilgan. Ularni tez topib olish uchun kabinetlarda maxsus ko`rsatkich-kataloglar mavjud bo`lishi kerak. Maktablarda bosma usuldagi didaktik materiallar, albomlar va shu kabi individual ko`rgazmali vositalar ham mavjud.

Darslarda ko`rgazma vositalardan, tarqatma materiallar o`quvchilarning fikrlash faoliyatlarini, nutqiy muomalasini oshiradi. Ya`ni o`quvchi chuqur va mustahkam eslab hamda xotirada saqlab qolishi shart bo`lgan narsalar, uning saviyasi, dunyoqarashining bir qismiga aylanadigani - u mustahkam eslab qoladigan obyektidir.

Ma`lumki, o`qituvchi o`quv yili davomida har bir darsda tarqatma materialdan foydalanadi. Bu materiallar shu sinfning ona tili darsligi materiallariga qo`shimcha bo`lib, ancha ilgari o`tilgan materiallarni takrorlash, esga tushurish, chuqurlashtirishda ham, 2-sinfda o`rganiladigan va yil davomida o`rganilgan materialarni takrorlab mustahkamlashda ham, nihoyat, 2-sinfda o`rganilganlarni

umumiy tarzda takrorlab, tizimlashtirishda ham o`qituvchiga yordamchi material sifatida xizmat qiladi.

O`qituvchi, bir tomondan, ona tili darsligi materiallarni (ham nazariy, ham amaliy materiallarni) puxta bilishi, ikkinchi tomondan, shu sinf uchun tuzilgan tarqatma materiallarni ham yaxshi o`rgangan bo`lishi kerak.

O`quvchilar dastlab darslikda berilgan topshiriqlarini goh o`qituvchi yordamida, goh mustaqil ravishda o`qib, uni bajarish tartibini va yo`llarini o`rgandilar, undan so`ng tarqatma kartochkalar bilan mustaqil ishlaydilar.

Tarqatma materiallarining topshiriqlari xilma-xil bo`lib, ular o`quvchilarning mustaqil ishini uyushtirishda va shu orqali ularda mustaqil fikr yuritish, izlanish, tahlil qilish, xilosalar chiqarish kabi malakalarni hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tarqatma materiallar bilan to`g`ri, tizimli, maqsadga mos ishlashni uyushtirgan o`qituvchi mustaqil ishlarni uyushtirish va uni tadrijiy takomillashtirib borish, o`quvchilarning o`zlashtirish darajasini tekshirish, bo`sh o`zlashtiradigan o`quvchilarni aniqlab, ular bilan yakkama-yakka ishlash, o`quvchilarning mavzular yuzasidan olgan bilimlarini kengaytirish, mustahkamlash, o`quvchilarda mustaqillik, javobgarlik, o`z-o`zini tekshirish, umuman, ularda bilimga, o`qish-o`rganishga, mustaqil ishlashga qiziqish uyg`otish, izlanuvchanlik, topqirlik, ijodiy va ongli yondashish, grammatik qoidalarini, to`g`ri yozuv va to`g`ri talaffuz normalarini o`zlashtirishlariga erishish mumkun.

Tarqatma materiallardan sinfda bajariladigan topshiriq sifatida ham, uy vazifasi sifatida ham foydalanish mumkin. Shuningdek, bir kartochka materialidan boshqa mavzuda foydalanish ham mumkin.

Tarqatma materiallarda o`quvchilarning o`g`zaki va yozma nutqini o`stirish, berilgan so`zlar bilan gaplar, matnlar tuzish; tushirib qoldirilgan so`zlarni mazmunga mos holda o`rniga qo`yish; aniq grammatik (fonetik, orfografik, orfoepik, morfologik, sintaktik, punktuatsion) topshiriqlarni tushunib bajarish shartidan kelib chiqadigan topshiriqlar berilgan.

O`qituvchi bu didaktik materiallaridan foydalanish davrida o`quvchilarning

bilim darajasini, mustaqil ishlay olish xususiyatini hisobga olishi lozim. O`qituvchi har bir kartochka shartini o`zgartirgan holda foydalanishi yoki bir seriyada berilgan kartochkadan boshqa seriya materiali sifatida foydalanishi ham mumkun.

Shunigdek, bir kartochkaga ilova qilingan bir necha shartni ulardan ayrim shartlarni tanlab olish asosida foydalanishi ham mumkun. Shuning uchun ham ushbu didaktik materiallar turlicha o`zlashtiruvchi o`quvchilar saviyasini hisobga olgan holda tuziladi.

2 b o b . 2 -sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish metodikasi

2.1. 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallar asosidagi mustaqil ishlardan foydalanish yo`llari

Tarqatma materiallar boshlag`ich sinflarda kartochkalar yoki buyumlar ko`rinishida bo`lishi mumkin.

I. Buyumlar ko`rinishidagi tarqatma materiallar asosidagi mustaqil ishlar.

Bunday tarqatma materiallar o`quvchilar nutqini o`stirish yoki ularda sinchkovlik, kuzatuvchanlikni rivojlantirish maqsadida tarqatiladi va quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

- Buning nomi nima?
- Uning ko`rinishi qanday?
- U nima maqsadda ishlatiladi?

II. Kartochkalar asosida o`tkaziladigan mustaqil ishlar.

Tarqatma materiallar kartochkalari o`tilgan mavzularni takrorlash, mustahkamlash, olingan bilimlarni sistemalashtirish maqsadida ishlatiladi. Kartochkalarni tarqatishdan avval o`quvchilar o`qituvchi bilan birgalikda darslikda berilgan mashqlarni bajarib, mashqlar shartini tushunish, bajarilish tartibini va yo`llarini o`rganadilar.

O`qituvchilar biz quyida namuna sifatida ko`rsatadigan tarqatma materiallardan foydalanishlari yoki o`zlari xilma-xil topshiriqlar asosida tayyorlashlari mumkin. Muhimi, bunday didaktik materiallar mustaqil ishlarni uyushtirishda va shunday mustaqil ishlar vositasida o`quvchilarda mustaqil fikr yuritish, izlanish, analiz va sintez qilish, to`g`ri xulosalar chiqarish malakalarini shakllantirishga yordam bersin.

Tarqatma materiallar bilan ishlashning afzalligi shundaki, o`qituvchi har bir o`quvchining individual bilim darajasini, bilimlarni o`zlashtirish darajasini, ularning har bir mavzu yuzasidan o`zlashtirgan bilim darajalarini alohida tarzda qayd qilib borish imkoniyatiga ega bo`ladi. Bundan tashqari, tarqatma materiallardan foydalanishda bo`sh o`zlashtiradigan o`quvchilar bilan alohida

ishlash, o`quvchilarning mustaqil ishlarini izchil ravishda murakkablashtirib borish imkoniyati ham juda keng.

Tarqatma materiallardan o`z o`rnida va to`g`ri foydalanish o`qituvchiga qisqa muddat davomida yuksak natijalarga erishishga yordam beradi. O`quvchilarda bilim olish bilan birgalikda mustaqillik, ijodkorlik, o`z-o`zini tekshirish, o`z kuchiga ishonch, har bir topshiriqni hal etishga mas`ullik va ijodkorlik bilan ongli yondashish kabi xislatlarni shakllantiradi. Biz quyida beradigan tarqatma materiallar 2-sinfda Alifbe davri, ona tili va o`qish darslarida foydalanishga mo`ljallangan. Ona tili darslarida foydalanish uchun berilgan tarqatma materiallar mavzular bo`yicha ajratilgan.

Har bir mavzuga bag`ishlangan tarqatma materiallardan shu mavzu o`tiladigan darslarda hamda keyinchalik mustahkamlash, takrorlash darslarida ham foydalanish mumkin.

B-2

Maqolni o`qing.

Ish ishtaha ochar,

Dangasa ishdan qochar.

Har bir so`zda nechta harf bor?

B-3

O`qing.

Har gulning hidi boshqa.

Gapdagi har bir so`zda nechta tovush bor?

B-4

Quyidagi gaplarni yozma shaklga aylantirib yozing.

Munavvar onasiga yordamchi. Onasi ovqat qilayotganda sabzavotlarni tozalab beradi. Kir yuvayotganda esa chelakchasida suv tashib beradi.

B-5

Gapni o`qing. Unda nechta tovush va nechta harf bor?

Singlimning tili burro.

- 20 ta harf va 21 ta tovush.

- 20 ta harf va 18 ta tovush.
- D. Unli tovush va harflar

- D-1

- O`qing. Olma, atirgul, Ibrat, sohil.

Har bir so`zda nechta unli va undosh tovush borligini aniqlang.

D-2

Avval bitta unli tovush qatnashgan so`zlarni, keyin ikkita unli tovush qatnashgan so`zlarni tanlab o`qing.

Olcha, anor, tol, Karim, uzum, sihat, bol, ufq.

D-2

O`qing.

Olim, paxta, taxta, umid, eman, daraxt, ovoz, ulkan.

Avval undosh tovush bilan boshlanadigan so`zlarni, so`ng unli tovush bilan boshlanadigan so`zlarni yozing.

D-4

O`qing.

Sham, Tolib, Sobir, olam, armug`on, Anushirvon.

Har bir so`zdagi undosh tovushlar sonini ayting.

D-5

Nuqtalar o`rniga to`g`ri javobni qo`ying.

- Talaffiiz qilganda og`iz bo`shlig`ida to`siqqa uchramaydigan tovushlar . . . tovush deyiladi;

- Talaffuz qilganda og`iz bo`shlig`ida to`siqqa uchraydigan tovushlar . . . tovush deyiladi.

E. Alifbo E-1

Sinfdozlaringizdan to`rttasining ismini alifbo tartibida yozing.

E-2

Oila a`zolaringiz ismini alifbo tartibida yozing.

E-3

Quyidagi harflar alifboda nechanchi o`rinda joylashgan? U, Q, F, J, I, O.

E-4

O`qing. Qo`qon, Andijon, Qarshi, Toshkent, Buxoro, Kitob.
Yuqorida berilgan shaharlar nomini alifbo tartibida joylashtiring.

E-5

O`qing. Ona, daftar, Vatan.

So`zlardagi harflarni alifbo tartibida joylashtiring.

F. Bo`g`in

F-1

Quyidagi so`zlarda nechta bo`g`in bor? Bol, tol, olam, qalam, fazogir, tomorqa.

F-2

She`rni o`qing.

Toshxon qiz o`zi-o`zi,

Boshida yorma do`zi.

Yormado`zi yarashgan,

Oyisiga qarashgan.

(G`.G`ulom). She`rdagi har bir so`zni bo`g`inlarga ajrating.

F-3

So`zlardagi bo`g`inlar soni qanday tovushlar soni bilan bir xil bo`ladi?

- Undosh tovushlar soni bilan.
- Unli tovushlar soni bilan.

F-4

O`qing.

Bodom kabi yaprog`i,

Sollanadi butog`i.

O`zi shirin tukligina Mazasi ham totligina.

Topishmoqning javobini toping. Har bir so`zda nechta bo`g`in borligini`ayting.

F-5

Avval bir bo`g`inli, so`ng ikki bo`g`inli, oxirida esa uch bo`g`inli

so`zlarni terib o`qing.

Naqsh, mamlakat, tabiat, sabzi, quvur, sinf, rostgo`y, rost.

G. Bo`g`in ko`chirish G-1

Quyidagi so`zlarni avval bo`g`inga bo`lish qoidasiga binoan, so`ngra bo`g`in ko`chirish qoidasiga binoan bo`lib yozing.

Elak, dori, duo, giyoh, hamroh, ipak, hosil.

G-2

She`rni o`qing.

— Tegma menga, —dedi g`o`ra,

Darsingni qil undan ko`ra!

Hali xomman va taxirman,

Shuning uchun ko`p baxilman.

(Shuhrat)

She`rdagi har bir so`zni bo`g`in ko`chirish qoidasiga binoan bo`g`inga bo`lib yozing.

G-3

So`zlar qaysi qatorda bo`g`inga to`g`ri ajratilgan? To`g`ri javobni doirachaga oling.

A. ka-nal	B. ka-nal
Ra-hm	rahm
ra-di-o	ra-dio
siy-rat	siy-rat
ta`n-a	ta`-na
ru-x	ru-x
ru-x-sat	ru-x-sat

G-4

Qaysi qatorda so`zlar bo`g`in ko`chirish qoidasiga mos holda yozilgan? To`g`ri javobni doirachaga oling.

A. o-mad	B.omad
par-ta	par-ta

madhi-ya	mad-hiya
ko`p-rik	ko`p-rik
i-lon	ilon

G-5

Maqolni o`qing. Oltin olma, duo ol, Duo oltin emasmi.

Maqoldagi so`zlarni bo`g`in ko`chirish qoidasiga mos holda qismlarga bo`lib yozing.

H. So`z ma`nosi H-1

So`zlarning mosini topib o`qing.

N i m a? - Musicha, Xo`roz, Mushuk, It.

Nima qiladi? - Vovullaydi, kukulaydi, qichqiradi, miyovlaydi.

H-2

So`zlarni o`z o`rniga qo`yib, gap tuzing. Maktabga, bu yil, bordi, Munisa.

H-3

Nuqtalar o`rniga b,t,s harflarini namunadagidek qo`yib o`qing va so`zlarning ma`nosida qanday o`zgarish bo`lganini, tushuntiring.

Bol	...og`	...il	...uz	...u
Tol	...og`	...il	...uz	...u
Sol	...og`	...il	...uz	...u

r
r

H-4

Juftlab berilgan so`zlarning yozilishidagi va ma`nosidagi farqni ayting.

Dono—dona, quruq—quyruq, fil—til, kino—sinov, tom—taom.

H-5

So`zlar orasidan k i m ? so`rog`iga javob bo`lgan so`zlarni topib o`qing.

M a r t , ona, Vatan, Lola, Mashina, mashinist, kitob, kutubxona, O`tkir, Zafar.

I.Hayvonlarga qo`yilgan nomlar 1-1

Nuqtalar o`rniga mos so`zlarni qo`yib, matnni o`qing.

Buvinikida turli uy hayvonlari bor. Buvim, sigirlarini ... deb nomlaganlar. Sigirning bolasi ... juda yoqimtoy. Uning nomi.... Buzoqcha doim ... nomli toycha bilan o`ynaydi.

Q o ` y i s h u c h u n s o ` z l a r : Tulpor, buzoqcha, Qashqa, Targ`il.

1-2

O`qing. Mening mushugimning nomi baroq. O`rtog`im Alisher esa mushugini Mitti deb nomlagan.

Qaysi so`zlar bosh harf bilan yozilishi lozimligini ayting.

1-3

Quyidagi nomlarning qaysi hayvonlarga tegishliligini ayting.

Olapar, To`rtko`z, Mosh.

J. Joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi

J-1

Har bir so`z qanday nom shahar, ko`cha, inson nomini bildirishini ayting.

O`ktam, Oqtepa, Angren, Olmaliq, Qahramon, G`alaba, Mahmud, Farg`ona, Sitora, Mehnatobod, Kamola.

J—2

O`qing.

Marg`ilon, Shahrisabz, Qo`qon, Kitob, Ohangaron, Andijon, O`sh.

Shahar nomlarini alifbo tartibida yozing.

J-3

O`qing.

Dehlaviy, Alisher Navoiy, Yangi turmush, Bog`zor, Ko`kbuloq, A1 Forobiy, Fidokor.

Har bir ko`cha nomida nechta unli va nechta undosh tovush borligini ayting.

K. Harakat bildirgan so`zlar

K-1

So`zlarning mosini topib, gap tuzing.

Quruvchi o`qiydi.

Tikuvchi	daraxt ekadi.
Bog`bon	uy quradi.
O`quvchi	tikadi.

K-2

Nuqtalar o`rniga nima qiladi? so`rog`iga javob bo`ladigan so`zlarni qo`yib o`qing.

O`qituvchi..., tarbiyach..., shoir it..., mushuk ..., xo`roz

K-3

She`rni o`qing.

Bahor keldi, bahor keldi,

Yomg`irli xush shamol yeldi.

Biz ham qumsab uni har choq Ko`zlar yo`lda edi mushtoq.

N i m a q i l d i ? so`rog`iga javob bo`ladigan so`zlarni topib ayting.

K-4

Maqolni o`qing.

Hurmat qilsang, hurmat ko`lasan. Harakat bildirgan so`zlarni ayting.

K-5

Nuqtalar o`rniga harakat bildirgan so`zlarning mosini qo`yib, matnni o`qing.

Bugun Nargiza maktabga Dugonasi undan ...va uning uyiga Nargiza kasal ekan. Dugonasini ko`rib u rosa

L. Sanoq bildirgan so`zlar

L-1

Sanoq bildirgan so`zlar qatnashgan maqollardan ayting.

L-2

Sanoq bildirgan so`zlar qatnashgan topish-moqlardan ayting.

L-3

She`rni o`qing.

Yulduz , Qunduz — singil va opa Boshladilar katta tortishuv.

Yulduz dedi:—Oy Bitta faqat,

Qunduz dedi:— Yo`q, ikkita-ku!

Sanoq bildirgan soʻzlarni toping.

L-4

Sanoq bildirgan soʻzlar qatnashgan tez aytishlardan ayting.

L-5

Doskaga quyidagi raqamlarni soʻz bilan yozing. 27,5,14,32,30,40,11,7.

M. Belgi bildirgan soʻzlar M-1

Qanday? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni topib ayting.

Chaylaga bogʻlogʻliq turgan qora ot bizni koʻrib kishnadi. Chayla tepasidagi kattakon qush qanotini silkitib, ustimizga sapchiguday boʻldi.

M-2

Maqollarni oʻqing.

Oq koʻngillikning yuzi koʻrkam. Oʻzi yuzsiz, soʻzi tuzsiz.

Q a n d a y ? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni topib ayting.

M-3

Nuqtalar oʻrniga qanday? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarning mosini qoʻyib, matnni oʻqing.

Rassom qiz

Setora rasm chizishni yaxshi koʻradi. Bugun u . . . bahor rasmini chizdi. Daraxt gullarini . . . rangga boʻyadi. . . . maysalarni ham chizdi. . . . kapalakni esa . . . gulga qoʻnib turgan holda tasvirladi.

Q o ` y i s h u c h u n s o ` z l a r : zumrad, pushti, ko `m-ko `k, chiroyli, xushboy.

M-4

Topishmoqni oʻqib, javobini ayting.

- Bir barmoqcha boʻyi bor, Qizil baxmal toʻni bor.
- Hoʻppa semiz bir tuki yo `q.

Belgi bildirgan soʻzlarni topib ayting.

M-5

Maqollarni oʻqing va yod oling.

Shirin soʻz - shakardan shirin.

Yolg'iz otning changi chiqmas, Changi chiqsa ham dong'i chiqmas.

Q a n d a y ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni topib ayting.

N. Nutq va gap N-1

So'zlarni o'z o'rniga qo'yib, gaplar tuzing.

Tushdi, Dilfuza, dadasi bilan, sirkka. Chiqishlarini, u yerda, hayvonlarning, tomosha qildi. Dilfuzaga, chiqishi, juda, ayniqsa, yoqdi, masxarabozlarning.

Tuzgan gaplaringiz matn hosil qila oladimi?

N-2

Matnni o'qing.

Ertalabdan Ozodning tishi og'riy boshladi. Oyisi uni tish doktori huzuriga olib bordi. Doktor Ozodning tishini davoladi. Ozod bundan buyon uxlashdan oldin va ertalab tishini tozalab yuvishga va'da berdi.

Matnga sarlavha toping. Matn nechta gapdan iborat.

N-3

Nutq va matnning farqini tushuntirib bering.

N-4

Matn nimalardan tuziladi?

- Bo'g'inlardan.
- Gaplardan.

N-5

Gaplarni o'qing. Bu gaplar matn hosil qila oladimi? Nima uchun?

Bugun Sayyoraning tug'ilgan kuni.

Akbar juda bilimdon bola.

Bobomning bog'larida turli mevali daraxtlar ko'p.

O. Savol-javob gaplar O-1

Quyidagi chizma asosida namunadagidek gaplar tuzing.

- Kim o'qiyapti? — O'quvchi o'qiyapti.

O-2

Quyidagi gaplardan savol-javob gaplar tuzing.

1. Onam shifoxanada ishlaydilar.
2. Kutubxonachi kitoblarni tartibga soldi.

0-3

Quyidagi gaplarga zarur tinish belgilarini qo'ying.

Osiyoda yangi yil qachon boshlanishini bilasizmi Osiyo xalqlari uchun yangi yil 21-martdan boshlanadi Shu kuni ular sumalak, ko'k somsa kabi bahor taomlaridan pishiradilar.

0-4

Topishmoqni o'qing.

Ikki ajib qulog'i bor:

Biri tinglar, biri so'zlar.

Topishmoqda nechta gap bor? Har bir gapning turini ayting.

0-5

Quyidagi savollarga to'liq javob bering.

- A. Siz necha yoshdasiz?
- B. Hozir nechanchi sinfda o'qiyasiz?
- C. Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

O`QISH

P-1

Vatan haqidagi maqollardan ayting.

P—2

Ilmning afzalliklari haqidagi maqollardan ayting.

P-3

Topishmoqni o'qing va javobini ayting.

Bir onadan yuz bola,

Yuzovi ham bo'z bola.

Uzun terak, ichi kovak.

P—4

She'rni ifodali o'qing.

Manzara

Yashil gilam ustiga

Kimdir olcha sochibdi.

Olchalarni terishga

Gulnoza qiz shoshibdi.

Borsa bu gilam emas,

Maysazor dala ekan.

Olcha deb o`ylagani,

Qip-qizil lola ekan.

P—5

She`rni ifodali o`qing.

Har bir gilos o`rikday,

Zo`ldir, sergo`sht, qirmizi.

Qushlar bozorin ko`rib,

Bolalar ham hang-u mang.

Zarg`aldog`-u zog`chalar,

Shoshib qoldi g`o`ldirab.

Tortinchoq musichalar,

Simyog`ochda mo`ltirar.

T. Adashboyev

P-6

Tez aytishni mashq qihng.

Qurilishga terak kerak, Demak terak ekmoq kerak.

2.2. 2-sinfda ona tili, o`qish va xat-savod o`rgatishda qo`llaniladigan tarqatma materiallar

Ona tili va o`qish darslarida kesma harflar va bo`g`inlar, predmet rasmlari, syujetli rasmlar, topshiriqli kartochkalar, kabi tarqatma materiallardan, kartondan yasaladigan tasmachalardan foydalaniladi.

Kesma harflar bilan quyidagicha ishlanadi:

- Biror so`z rasm va biror tarqatma material mazmuni muhokama

qilinib, tovushlar mashqi o'tkazilgach, shu tovushlar kesma harflar bilan almashtirilib, doskaga so'z yoki kichik gaplar tuziladi.

- Kesma harflar yordamida tuzilgan so'zlardan ayrim harflarni olib qo'yish (bor- or, bo'r- o'r, she'r-she'r), uni boshqa harflar bilan almashtirish (bir-ber, bor-bur-bo'r) mumkin.

- Yozuv darslarida biror so'zni yozishdan oldin shu so'z kesma harflar bilan tuzdiriladi va o'qitiladi. Bolalar tuzilgan so'zlardagi bosma harflarni yozma shakllari bilan ifodalash malakasiga ega bo'ladilar. Bular orfografik xatolarni ham oldini oladi.

- Kesma harflar bilim darajasi har xil bo'lgan bilan ishlashda ham qulay. Kesma harflar bilan ayrim bolalarga so'z tuzdirilsa, boshqalariga gap tuzdiriladi.

- Ulgurmovchi o'quvchilarni o'qishga o'rgatishda ham kesma harflar yaxshi yordam beradi. Bunday o'quvchilarga avval ikki harfli, so'ng 3-4 harfli so'zlar tuzdirilib o'qitiladi.

- Kesma harflar bilan surunkali ishlash bolalarning bo'g'inlab, so'zma-so'z, ravon o'qish ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

Turli predmet rasmi tasvirlangan tarqatma materiallardan savod o'rgatish davrining barcha bosqichlarida foydalanish maqsadga muvofiq. Rasmlar yordamida o'rganilgan tovush va harfni mustahkamlash uchun quyidagi mashq turlari o'tkaziladi: a) nomida o'rganilgan tovush-harflar ishtirok etgan rasmlar ko'rsatiladi; b) rasmda tasvirlangan predmetning nomidagi birinchi harfni yozadilar kesma harfdan topadilar; v) nomining bosh harfiga moslab predmet rasmini guruhlaydilar; nomi to'liq yozilgan, biror bo'g'ni yoki birinchi harfi yozilgan rasm-kartochkalardan foydalanish ham mumkin. O'qituvchi konvertga o'rganilgan so'zlarga mos rasmlar solib, o'quvchilarga tarqatadi va konvertdan o'rganilgan so'zlarga mos rasmlarni tanlashni buyuradi. Rasm-kartochkalari bilan birga o'rganilgan harflar solingan konvert ham tarqatilishi mumkin. Bunda o'qituvchi rasm nomini aytadi, o'quvchilar shu rasmni topib, konvertdan uning birinchi harfini topib ustiga qo'yadilar. Syujetli rasmlar yordamida gaplar tuzdiriladi .

Topshiriqli kartochkalarda “Rasmni ko`r va ayt”, “Rasmni ko`r, nomini doskaga yoz” kabi topshiriqlar bo`ladi. Yuqoridagi tarqatma materiallardan bolalarning bilim saviyasini, qobiliyatini hisobga olgan holda foydalaniladi.

Tasmachalar gap tuzishda qo`llaniladi. Tasmachani o`qituvchi kartondan quyidagi ko`rinishda tayyorlaydi.

---- ----- (3 so`zli darak gap uchun)

---- ----- ? (3 so`zli so`roq gap uchun)

---- ----- ! (3 so`zli his-hayajon gap uchun)

Har bir so`zni ifodalaydigan tasmacha ( -----) alohida bo`ladi. So`zning necha bo`g`inli ekanini ham ko`rsatish lozim bo`lganda tasmachalar chiziqlar bilan bo`linishi mumkin. Tasmachalar kam vaqt sarflashga va darsga bolalarning qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Fonarchalar ham karton qog`ozdan tayyorlanadi. O`quvchining topshiriqni to`g`ri yoki noto`g`ri bajarayotganini qolgan o`quvchilar fonarchani ko`tarish orqali aytadilar. Yashil fonarcha topshiriqning to`g`ri bajarilganligini, qizil fonarcha noto`g`ri bajarilganini ifodalaydi.

Xat-savod o`rgatishda epidiaskop, magnitofon, kinoapparat, televizor, kadoskop kabi texnik vositalardan foydalaniladi. Masalan, epidiaskop orqali kichkina harf, bo`g`in, so`z yoki rasmlar kattalashtirib ko`rsatiadi.

Bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish, nutqini ravon qilish, ifodali o`qish malakalarini egallashlari uchun magnitofon lentasi orqali o`qilishi qiyin so`zlar, she`r, ertak va qo`shiqlar eshittiriladi. Bu jarayon 3 minutdan oshmasligi kerak. Buning uchun magnitofon lentasiga o`quvchilarga tavsiya etiladigan so`zlar, badiiy asarlar oldindan o`qish normalari asosida yoziladi. Masalan, “Sholg`om” ertagi videomagnitofondan eshittirilishi, so`ng o`quvchilarga uning mazmunini gapirtirish mumkin. Shundan so`ng kitobdagi rasmlar asosida ertak mazmuni qismlarga bo`linadi.

r tovushining to`g`ri talaffuzi o`rganilayotganda traktor, tramvay, sentabr, oktabr, noyabr kabi so`zlar dastlab bo`g`inlab, keyin bo`g`inlamay butunicha videomagnitofondan eshittiriladi. So`ng bu so`zlar talaffuzi o`quvchilarga mashq

qildiriladi. Shu soʻzlar yuzasidan mantiqiy mashq oʻtkaziladi, yaʼni bolalar soʻzlarni guruhlab, bir soʻz bilan aytadilar. Yoki tarkibida r tovushli soʻzlar koʻp ishtirok etgan sheʼr eshittirilishi mumkin:

Archa, archa, jon archa,

Yaproqlaring ninacha.

Atrofingda aylanib,

Qoʻ shiq aytadi barcha.

Sinfda tashqari oʻqish uchun tanlangan asarlardagi personajlar nutqi dialog tarzida (erkak yoki ayol, qoʻy yoki boʻri tovushini ifodalab) yozib olinib, eshittirilishi mumkin.

Sinfda jamoa boʻlib ishlash, oʻrgangan harflar ishtirokida boʻgʻin, soʻz, gap tuzish uchun odmi matodan tikilgan katta “Harf kassasi” boʻlishi shart. Boʻgʻin, soʻz tuzishda kerakli harflarni tez topish uchun “Harf kassasi”ga 40 xonali choʻntaklar tikilib, oʻrganilgan harflardan biri alifbe tartibida choʻntakcha ustiga yopishtiriladi, qolganlari esa choʻntak ichiga solib qoʻyiladi, yopishtiriladigan harflarning unlisi qizil rangda, undoshi esa koʻk yoki qora rangda boʻlishi zarur.

Har bir oʻquvchida “Harf kassasi” boʻlib, ular bilan ham xuddi sinf “Harf kassasi” dagidek ish olib boriladi. Kesma harflarning katta shakldagisi sinf “Harf kassasi” uchun foydalanilsa, “Alifbe”ga ilova tarzida berilgan harflarni esa har bir oʻquvchi qirqib olib, oʻzining “Harf kassasi”ga oʻrgangan harfini yopishtirib, boshqalarini kassada saqlaydi.

“Harf kassasi” oʻquvchilarni boʻgʻnlab va keyinchalik soʻzlarni toʻliq oʻqishga, toʻgʻri yozishga oʻrgatishda, gap, soʻz, boʻgʻin va tovushlarni sintezlashda ayniqsa ahamiyatlidir.

Soʻz va gaplarni faqat “Harf kassasi”da yozdiribgina qolmay, balki sirli mato deb atalgan koʻrgazmali quroldan ham foydalanish mumkin. Uni tayyorlash uchun bir metr odmi paxmoq mato olib, ilish uchun uning yuqori va past tomoniga ingichka taxtacha qoqiladi va doska yoniga ilib qoʻyiladi. Paxmoq matoning tukli tomoniga xuddi “Harf kassasi”dek, boʻgʻin, soʻz va gaplar tuzamiz. Faqat harflarning orqasiga jilvir qogʻoz yoki yelim surtib qum yopishtiriladi. Harflar

orqasidagi qum donachalari paxmoq tuklariga yopishadi va harf terilaveradi. Buni sirli mato deb atashimizning boisi ham shunda, harflarning osonlik bilan terilishi bolalarga sirli va zavqli tuyuladi. Sirli mato qo'llanmasidan matematika, tasviriy san'at, mehnat darslarida ham foydalanish mumkin.

“Harf terish kartoni” ham mashg'ulotlarni jonlantiradi. Uni tayyorlash uchun eni 70 santimetrni, bo'yi 90 santimetrli karton olinib, unga eni 4 santimetr uzunligi taxminan 30 santimetrli 5 ta karton lenta yopishtiriladi. Har bir karton lenta orasida 10-15 yeridan joy qoldiriladi. Bu lentalar orasining pastki yarmiga yelim surtilib, kartonga besh qator qilib yopishtirib chiqiladi. Kartoning o'ng, chap hamda pastki tomonlariga 36 ta ochiq konvert yopishtiriladi. Kesma harflar konvertchalarga bir qismi ko'rinadigan qilib solib qo'yiladi.

2-sinf ona tili darslarida o'quvchilar bilimini oshirish va o'qituvchining mehnatini samarali qilish vositalaridan biri o'qitishning ko'rgazmali bo'lishidir.

Metodist S. Matchonov ko'rgazmalilikning didaktik ahamiyatini ta'kidlab, shunday qiyosiy fakt keltirgan edi: “Siz bolaga qandaydir beshta noma'lum so'zni o'rgating, u bu so'zlarni bilib olguncha uzoq vaqt ketadi va behuda bosh qotiradi. Lekin suratlar vositasida o'rgatilgan 20 so'zni o'quvchi hash-pash deguncha o'rganib oladi”¹⁹.

Ayniqsa, ona tili darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish darsning samaradorligini yanada oshiradi. Jumladan, ish harakatni bildirgan so'zlarni o'rganishda ko'pgina mavhum tushunchalar mohiyati aniqroq ochiladi. O'quvchilar ularni puxta o'zlashtirib oladilar.

1. O'quvchilar tarqatma materiallar, jadval va grafik vositalar bilan ishlash davomida bog'lanishli nutq malakalarini ham takomillashtirib boradilar.

2. O'quvchilarning darsga qiziqishi oshadi.

3. Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish faoliyatining asosiy bosqichlari, jonli kuzatish, tahlil qilish, qiyoslash va umumlashtirish haqida dastlabki tushuncha va malakalarga ega bo'ladilar.

¹⁹ Qosimova K. Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent “Noshir”. 2009. 146-bet.

2-sinf o`quvchilari yoshiga mos va materialning xarakteri har bir darsda ko`rgazmali quroldan foydalanishni taqozo etadi. O`quvchi qancha yosh bo`lsa, materialni ko`rgazmalilik orqali o`rgatishga shunchalik zaruriyat tug`ladi. Ikkinchidan, o`quvchiga ko`rsatilmagan fakt va material ko`pincha mavhum bo`ladi. O`quvchi yangi fakt va hodisani ko`rib idrok etsa, uning mohiyatini tezroq aniqlaydi. O`quvchi ko`rish orqali ham predmet - hodisa haqida ham, ularning tildagi ifodasi haqida bilim oladi.

Didaktika tarixida ham ko`rgazmalilikning o`rni va mohiyati alohida e`tirof etilgan. Bu ona tili o`qitishning asosiy tamoyillaridandir.

2-sinfda o`qitishni ko`rgazmali o`tkazish uchun barcha shart-sharoit mavjud. Texnik vositalar o`qitishning ilmiy va g`oyaviy tomondan yaxshilanishida eng muhim omillardandir. Ilg`or o`qituvchilar bu imkoniyatlardan samarali foydalanib, o`z o`quvchilarining ona tilini puxta bilishlariga erishmoqdalar.

Ko`rgazmali qurollardan yangi bilim berishda ham foydalanish mumkin. Masalan: Ish harakatni bildiradigan so`zlar haqida o`quvchilarga ma`lumot berilayotganda qizlar giloslarni terayaptilar yoki do`ppi tikayotgan chevarning rasmidan foydalanilsa, harakat bilan narsa orasidagi munosabatni tushunib olish uchun katta imkoniyat yaratiladi. Harakatning bajarilganini yoki bajarilmaganini tuzgan gaplaridan ajratiladi.

Ish harakatni bildiradigan so`zlarni o`qitish yo`llari bo`yicha 2-sinfda olib borgan tajriba darslarida tarqatma materiallardan foydalandim. Har bir o`qituvchi o`quv yili davomida darslarda tarqatma material, kartochkalardan foydalanadi. Bu materiallar o`tiladigan dars mavzusi materialiga qo`shimcha bo`lib, oldin o`tilgan mavzularni takrorlash, esga tushurishda o`quvchiga yordamchi material sifatida xizmat qiladi.

O`quvchilar dastlab darslikda berilgan mashq topshiriqlarini goh o`qituvchi yordamida, goh mustaqil ravishda o`qib, uni bajarish tartibi va yo`llarini o`rganadilar, undan so`ng tarqatma kartochkalar bilan mustaqil ishlaydilar.

Kartochkalar bilan to`g`ri, maqsadga mos ishlashni uyushtirgan o`qituvchi mustaqil ishlarni uyushtirish va uni tadrijiy takomillashtirib borish,

o`quvchilarning o`zlashtirish darajasini tekshirish, bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilarni aniqlab, ular bilan yakkama-yakka ishlash o`quvchilarning mavzular yuzasidan olgan bilimlarini kengaytirib, mustahkamlash, o`quvchilarda mustaqillik, javobgarlik, o`z-o`zini tekshirish, mustaqil ishlashga qiziqish o`yg`otish, izlanuvchanlik, topqirlik, ijodiy va ongli yondashish, grammatik qoidalarini to`g`ri yozuv va to`g`ri talaffuz qilish me`yorlarini o`zlashtirishga erishish mumkin. Asosan, o`quvchilarda mavzu yuzasidan malaka va ko`nikmalari shakllanadi.

2-sinf ona tili darslarida ish harakatni bildirgan so`zlarni o`tishda quyidagi tarqatma materiallardan foydalaniladi.

No-1

O`qing. Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqda? so`roqlariga javob bo`ladigan ish harakatni bildiradigan so`zlarni aniqlab ayting.

1. Qor tobora qattiq yog`ayapti. Old oynani qor qoplab olyapti. 2. Nusrat magazinni eshigi oldida to`xtadi. 3. O`rmon yonidagi o`tloqda, futbol qizib bormoqda.

No - 2

Topishmoqni o`qing, javobini ayting.

Yuradi siljimaydi.

Moysirab, g`irchillaydi.

No 3

Topishmoqni o`qing, javobini toping.

Tovushlarni tinglaydi,

O`z joyidan jilmaydi.

Boqmasangiz ko`zguga,

U sizga ko`rinmaydi.

No 4

Topishmoqni o`qing, javobini toping.

Qanoti bor uchmaydi.

Suvdan aslo chiqmaydi.

No 5

She`ni o`qing. Unga sarlavha toping. Ish harakatni bildirgan so`zlarni topib, ularga so`roq bering.

Yulduzlar ko`p osmonda,
Havas bilan qarayman.
O`zim yaxshi o`quvchi-yu,
Nega sanay olmayman.

No 6

She`rni o`qing. Ish harakatni bildirgan so`zlarni aniqlang.
Qushlar sovuq qotmasin,
Hovlimizdan ketmasin.
Taklif etib ayvonga,
To`ydirdim rosa donga.

No-7

So`zlarning mosini topib, gap tuzing.
Quruvchi o`qiydi.
Tikuvchi daraxt ekadi.
Bog`bon uy quradi.
O`quvchi tikadi.

N o 8

Nuqtalar o`rniga nima qiladi? so`rog`iga javob bo`ladigan so`zlarni qo`yib o`qing.

O`qituvchi..., tarbiyachi ....., shoir it..., mushuk ..., xo`roz

No 9

She`rni o`qing.
Bahor keldi, bahor keldi,
Yomg`irli xush shamol yeldi.
Biz ham qumsab uni har choq
Ko`zlar yolda edi mushtoq.

No10

N i m a q i l d i ? s o ` r o g ` i g a j a v o b b o ` l a d i g a n s o ` z l a r n i t o p i b a y t i n g .

Maqolni o`qing.

Hurmat qilsang, hurmat ko ` rasan.

Harakat bildirgan so`zlarni ayting.

No 11

Nuqtalar o`rniga harakat bildirgan so`zlarning mosini qo`yib, matnni o`qing.

Bugun Nargiza maktabga dugonasi undan ...va uning uyiga Nargiza kasal ekan. Dugonasini ko`rib u rosa

N o 1 2

Maqolni o`qing.

Oltin olma, duo ol, Duo oltin emasmi.

Maqoldagi ish harakatni bildirgan so`zlarni aniqlab, imlo qoidasiga mos holda yozing.

No 13

Topishmoqlarning javobini toping.

Artsang ko`zing cho`g`latar,

Yechintirsang yig`latar.

(Piyoz)

Kosaga sho`ng`ib chiqar,

Og`ziga borib qaytar.

(Qoshiq)

Bittadir uning tishi,

Kesish, qirqishdir ishi.

(Pichoq)

Erta bahor kelguncha,

Dala-qirda yulduzcha.

(Qirov)

Birov kelganda darrov,

Ovoz beradi "vov-vov!"

(It)

Aka-uka yashaydi,
Bir-birini ko`rmaydi.

(Ko`zlar)

Guldur-guldur zo`r keldi,
Par savatda suv keldi.

(Yomg`ir)

U kelsa yig`laydi tog`,
Ko`z yoshidan gullaydi bog`.

(Yomg`ir)

Ifodali o`qing va ko`chiring Maktabda Gulnor, Dilbar Meni kutib olishdi.
Tug`ulgan kunni qizlar Qaydan bila olishdi?
Har bir gapning boshi va oxirini aniqlang. Ular qanday gaplar ekanini ayting.

No 15

O`qing. Har bir gapning oxiriga nuqta qo`yib ko`chiring.
Bolalar, sizlarni ajoyib zamonlar kutmoqda buning uchun siz sog`lom bo`ling va yaxshi o`qing siz eng insoniy jamiyatda yashyapsiz (As. Muxtor.)
Matinda nechta gap bor?

No 16

O`qing. Matinda nechta gap bor?
Siz qanotlari bilan dumi qora, qanotlarida oq - sariq, katta-katta dog`lari bor sayroqi qushlarni ko`rgansiz. Ana shu qushlar sa`va deb ataladi. Sa`valar turli o`tlarning urug`i, zararli hasharotlar bilan oziqlanadi

No 17

O`qing. Siz qanday gaplarni o`qidingiz?
Otajon, shaharlarni aylanib, kishilar qanday yashayotganini bilmoqchiman.
Siz menga ruxsat berasizmi?

No 18

O`qing. Matnda nechta gap bor?
Qadim zamonda bir temirchi yashagan ekan. U o`roq, tesha, bolg`a kabi

asboblari yasar ekan. Uning o'n uch yashar o'g'li Davlatboy otasiga yordam berarkan.

Matnga qanday sarlavha qo'yish mumkin?

No 19

Oqing. Mazmunini so'zlang. Matnda nechta gap bor?

Ulug' Vatan urishi yillarida halok bo'lgan yigirma million kishining xotirasi qalblarimizda abadiy saqlanadi. Biz yana jahon urishi olovining portlashini istamaymiz. Biz tinchlikni istaymiz.

No 20

O'qing. Nechta gap bor? Ular qanday gaplar

Tog'a, siz menga qalamingizni berib turing? Men tog'ning rasmni chizmoqchiman.

No 21

O'qing. Har bir gapning ega va kesmini so'roqlar yordamida aniqlang.

Kuk yuzini yashnatar

Minglab yulduzlar.

Er yuzini yangratar

O'g'il va qizlar.

(Miraziz A'zam)

No 22

O'qing. Nechta gap borligini ayting.

Dadam kuzda hovlimizga atirgul kuchatlarini o'tqazdilar. Shohista gulni juda sevadi. Oqiljon uning tug'ilgan kunida o'zi o'stirgan atirguldani sovg'a tayyorladi.

Birinchi va ikkinchi gaplarni ko'chirib yozing. Ularning ega va kesimini so'roqlar yordamida aniqlang.

No 23

Topishmoqni o'qing, javobini ayting.

Yashil savatning boshi Suvga qarab egildi.

Chilvir-chilvir sochlari Zilol suvda yuvildi.

Nechta gap borligini aniqlang, ular qanday gaplar?

N o 2 4

Topishmoqni o`qing, javobini ayting.

Yerga naycha qoqildi Suv nayzadek otildi.

N o 2 5

Har bir qatorda berilgan so`zlardan gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan matn hosil bo`lsin.

1. Juda tez, suv, oqayotgan joydan, chumali, ichayotgan ekan suv.

2. Oqizib ketibdi, uni, to`lqin.

- Bir daraxtda, suv bo`yidagi, kaptar, ekan, o`tirgan.

- Voqeani, bu, kaptar, ko`rgan, juda achinibdi, chimoliga.

- Uzib olibdi, bitta, bargni, shoxdan, kaptar, va, tashlabdi, suvga.

Shu matnga qanday sarlavha qo`ysa bo`ladi?

O`qish fanidan quyidagi test savollarini bajaring. Test savollarini variant-variant qilib, bajartirsa ham bo`ladi.

1 -variant

1.O`zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini kim yozgan?

Erkin Vohidov.

Abdulla Oripov.

11. “Vatan – bu” she`rini kim yozgan?

C. Po`lat Mo`min.

D. Erkin Vohidov.

12. Vatanimizda yashab o`tgan bahodirlardan kimlarni bildingiz?

A. To`maris, Shiroq, Alpomish.

B. Ibn Sino, Beruniy.

5.Kim Vatan tuprog`ini e`zozlagan?

A. Bobur.

B. Amir Temur.

2-variant

1. Kim munajjim bo`lgan?

A. Ulug`bek.

B. Bobur.

2. Kim Vatanni qo`msab sog`inib yashagan?

A. Navoiy.

B. Bobur.

3. Kim Ikki daryo oralig`idagi yurtni kuylagan?

A. Navoiy.

B. Ulug`bek.

5. Ota-ona keksayganda qaysi so`zni aytmaslik kerak?

A. Yo`q

B. Uff

3-variant

1. Amir Temur kim bo`lgan?

A. Shoir.

B. Sarkarda.

2. Amir Temur qaysi hikmatga amal qilgan?

A. Kuch — adolatda.

B. Juda ko`p hikmatlarda.

3. Bobokalonimiz Alisher Navoiy kim bo`lgan?

A. Shoir, olim, davlat arbobi.

B. Botir, qo`rqmas, polvon.

4. Alisherga tog`asi nima sovg`a qilgan?

A. Kiyik.

B. Qo`zichoq.

5. Alisher o`rtog`iga nimani maslahat berdi?

A. Ovchilikni.

B. Maktabga borishni.

4-variant

1. Husayn Boyqaro nimani keltiring dedi?

A. Xushbo`y narsani.

B. Gulni.

2. Navoiy unga nima keltirdi?

A. Gul.

B. Non.

3. Ibn Sino kim boʻlgan?

A. Mashhur hakim va olim.

B. Mashhur davlat arbobi.

4. Sitorabonu kim?

A. Husaynning onasi.

B. Alisherning onasi.

5. Husayn bor puliga nima sotib oldi?

A. Kitob.

B. Ovqat.

5-variant

1. Mirzo Ulugʻbek kim boʻlgan?

A. Olim, buyuk munajjim.

B. Bahodir.

2. Ulugʻbek bobom sheʼrining muallifi kim?

A. Poʻlat Moʻmin.

B. Rauf Tolib.

3. Mirzo Bobur kim boʻlgan?

A. Shoh va shoir.

B. Munajjim.

4. Bobur onasiga qanday savol berdi?

A. Bulutlarni ushlab boʻladimi?

B. Momiqni ushlab boʻladimi?

5. Navroʻz bayrami qachon boʻladi?

A. Yozda.

B. Bahorda.

6-variant

1. Bahorda yana qanday bayram bo`ladi?
 - A. Onajonlar bayrami.
 - B. Bolajonlar bayrami.
2. Lolalar qaysi faslda ochiladi?
 - A. Bahorda.
 - B. Yozda.
3. Bahorda qushlar qaysi o`lkalardan uchib keladi?
 - A. Issiq o`lkalardan.
 - B. Sovuq o`lkalardan.
4. Bahorda birinchi bo`lib qaysi daraxt gullaydi?
 - A. Bodom.
 - B. Shaftoli.
5. Qaysi gul birinchilardan bo`lib ochiladi?
 - A. Lola.
 - B. Boychechak.

7-variant

1. Quyidagi javoblardan bahor taomining nomini toping:
 - A. Sho`rva.
 - B. Sumalak.
2. Ota-bobolarimiz kitobni nima deb bilganlar?
 - A. Muqaddas boylik.
 - B. Ko`z qorachig`i.
3. O`quv, idrok nimaga o`xshaydi?
 - A. Nurga.
 - B. Mash`alga.
4. Bilim nima beradi?
 - A. Sharaf-shon.
 - B. Qut.
5. Inson nima tufayli ofatlardan omon qoladi?
 - A. O`z bilimi.

B. Obro'si.

8-variant

1. Eng aqlli mashinaning nomini ayting:

A. Neksiya.

B. Kir yuvish mashinasi.

C. Komputer.

2. Quyida komputer bajaradigan ishlarni aniqlang:

A. Misol va masalalar ishlaydi, yozadi, o'qiydi, o'ynaydi,

B. Kir yuvadi, xamir qiladi, uy supuradi, mehmon kutadi,

3. Insonning orzu-niyatlari amalga oshishi uchun nima kerak?

A. Bilim.

B. Boylik.

4. Belni bog'la, bilim ol, Yaxshi niyat — yarim mol.

Bu misra qaysi she'rdan olingan va muallifi kim?

A. “Maktab — oftob qo'shig'i” she'ridan olingan, muallifi Quddus Muhammadiy.

B. “Yaxshi niyat” she'ridan olingan, muallifi —Anvar Obidjon.

5. Quyon nega toshbaqadan oldin manzilga yetib kela olmadi?

A. Maqtanchoqligi uchun.

B. Sekin yurgani uchun.

9-variant

1. Sichqon sherni tuzoqdan nima uchun qutqardi?

A. Yaxshilik qilgani uchun.

B. Yomonlik qilgani uchun.

2. O'ziga aloqador bo'lmagan ishga aralashishning oqibati nima bilan tugaydi?

A. Yomonlik bilan.

B. Yaxshilik bilan.

3. Nega sayyod durrojni qo'yib yubormadi?

A. Do'stlariga xiyonati uchun.

B. Sofdilligi uchun.

4. Podshoh gul o`stirmagan bolani nega o`ziga farzand qilib oldi?

A. Rostgo`yligi uchun.

B. Gulni o`stirmagani uchun.

5. Sizjon qanday qilib murod-maqsadiga yetdi?

A. Xushmuomalaligi uchun.

B. Yaxshiligi uchun.

10-variant

1. Luqmoni Hakim odobni kimdan o`rgangan ekan?

A. Odoblidan.

B. Odobsizdan.

2. Odobli bolaning xislatlarini ayting.

Odobli bola

1. Shirinso`z. 5. Chaqirsa «labbay» deydi.

Xushfe`l. 6. Ish buyursa, «xo`p bo`ladi» deydi.

Shafqatli. 7. Ota-onani ranjitmaydi.

Ota-onaga qarshi so`zlamaydi.

3. Iqbol kapalakni nega qo`yib yubordi?

A. O`rtoq bo`lgani uchun.

B. O`ynagani uchun.

4. Norqulning onasi nega urushmadi?

A. To`g`ri gapirgani uchun.

B. Chimini sindirgani uchun.

5. Svetoforning necha xil rangdagi ko`zi bor?

A. Ikki xil.

B. Uch xil.

11-variant

1. Svetoforning qaysi chirog`i yonganda yo`ldan o`tish mumkin ekan?

A. Sariq chirog`i yonganda.

B. Yashil chirog`i yonganda.

2. Svetoforming qaysi chirog`i yonganda to`xtash kerak?
 - A. Yashil chirog`i yonganda.
 - B. Qizil chirog`i yonganda.
3. Svetoforming qaysi chirog`i ehtiyot chorasini ko`rishni bildiradi?
 - A. Qizil chirog`i.
 - B. Sariq chirog`i.
4. Nega begona odam Jalolga chiroyli qalam berdi?
 - A. Qalamini yo`qotgani uchun.
 - B. Rost gapirgani uchun.
5. Bolalar talashgani uchun nimaga ega bo`ldilar.
 - A. Yong`oqqa.
 - B. Yong`oq po`chog`iga.

12-variant

1. Nigina uyqudan nega kech turdi?
 - A. Allamahalgacha televizor ko`rgani uchun.
 - B. Allamahalgacha dars tayyorlagani uchun.
2. Bog`bon o`g`illariga aytgan oltin qayerda ekan?
 - A. Yerda.
 - B. Mehnatda.
3. Chol kimni merosxo`r qildi?
 - A. Katta o`g`ilni.
 - B. Kenja o`g`ilni.
4. Nega chol kenja o`g`lini merosxo`r qildi?
 - A. Aqlliligi uchun.
 - B. Boyligi uchun.
5. Soqiga sho`rva nega mazali tuyuldi?
 - A. Mehnat qilgani uchun.
 - B. Qorni ochligi uchun.
6. «Yer nima der?» she`rining muallifi kim?
 - A. Shukur Sa`dulla.

B. Po`lat Mo`min.

7. Erkinjonning buvasi nega tanbeh berdi?

A. Tugmachasi tushganligi uchun.

B. Yalqovligi uchun.

8. «Maqtanchoq g`oz» hikoyasidagi kimning gapi to`g`ri?

A. G`ozning.

B. Qurbaqaning.

O`z kasbini, o`z fanini sevgan o`qituvchi chiroyli, mazmunli ko`rgazmali qurollar tayyorlash orqali ham o`z o`quvchilarida fanga muhabbat uyg`otadi va ularni o`qitishga da`vat etish uchun, yaxshi tarbiyalash uchun katta imkoniyat yaratadi.

Tarqatma materiallarning topshiriqlari xilma-xil bo`lib, ular o`quvchilarning mustaqil ishini uyushtirishga va shu orqali ularda mustaqil fikr yuritish, izlanish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish kabi malakalarni hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

2.3. Didaktik o`yinlardan foydalanish jarayonida qo`llaniladigan ko`rgazmali vositalar

Sinf xonasiga olib kirilgan har qanday, har tomonlama go`zal, bola diqqatini o`ziga jalb qila oladigan ko`rgazma har qanday tilsiz bolani ham tilga kiritadi, uni o`ylashga majbur etadi. 2-sinflarda qo`lda tayyorlangan ko`rgazmali qurollardan foydalanish, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Boshlang`ich sinf o`qituvchilarining o`zlari turli mavzularda ko`rgazmali qurollar tayyorlashlari mumkin.

Qo`lda ko`rgazmali qurollar yasash xilma-xildir. O`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirish uchun katta hajmdagi rangli rasmlar, bukletlar va tarqatma materiallar tayyorlanadi. Shuningdek, ona tili, o`qish, matematika darslari uchun turli maketlar va harakatlantiruvchi o`yinchoqlar hozirlashimiz mumkin.

Kichik yoshdagi o`quvchilar faoliyatini o`stirish, fikrlashga undash va qiziqishlarini o`stirishda turli kartochkalar muhim ahamiyatga ega. Didaktik materiallardan foydalanish o`quvchining darslarga qiziqishini orttirib, bilim

doirasini kengaytiradi. Ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalaydi, xotirasini mustahkamlab, o`rganilgan materialni uzoq vaqt esda saqlab qolishga yordam beradi.

Bolaning idrok qilishi uchun iloji bo`lsa o`sha narsani ko`zi bilan ko`rib, qo`li bilan ushlab, hidi bo`lsa hidlab, imkoni bo`lsa, mazasini totib ko`rsa, o`sha predmet va uning belgi, xususiyatlari o`quvchining yodidan ko`tarilmaydi. Idrok qilishning bu turlarida o`quvchining ko`rish, hid bilish, sezish, maza-ta`m bilish sezgilari ishtirok etadi.

Mohir o`qituvchi har bir darsda tarqatma so`zli, rasmlı, didaktik materiallardan, bo`g`inli, so`zli, gapli kartochkalardan, harf, so`zli kassalardan keng foydalanadi.

2-sinf o`quvchilarining nutqini o`stirish uchun didaktik o`yinlar o`tkazdim. Buning uchun rasmlı kartochkalar tayyorladim. Bu kartochkalardan mavzuga oid topishmoqlar yozdim, o`quvchilarga tarqatib chiqdim. O`quvchilar tez va aniq javob berdilar. Birinchilardan bo`lib topgan besh o`quvchini rag`batlantirdim.

Boshlang`ich sinf ona tili va o`qish darslarida didaktik o`yinlar jarayonida ko`rsatmalilikni quyidagi guruhlarğa ajratish mumkin:

1. Darsda o`rganiladigan mavzularning aynan o`ziga oid ko`rgazmalarni ko`rsatish, masalan, qushlar, hayvonlar, makiab, sinf, shaharlar va shunga o`xshash bevosita o`zini ko`rish mumkin bo`lgan narsalarni ko`rsatib, o`quvchilar bilimini puxta bo`lishini ta`minlaydi. Ko`rgan bilganlarini darsda eslatish, ularni savol-javoblar orqali o`rganilayotgan mavzu mazmuniga bog`lash mumkin.

2. O`rganilayotgan mavzu mazmuniga mos bo`lgan turli texnik vositalarning modellaridan foydalanish.

- Ayrim shahar va qishloqlar, umuman, ayni vaqtda ko`z bilan ko`rish mumkin narsalarga oid materiallarni o`rganishda rasmlardan foydalanish.

- Turli xildagi kartochkalardan foydalanish (Masalan, rasmlar tasvirlangan yoki turli xil meva, hayvonlar shaklida tayyorlangan bo`lishi mumkin). Bu ona tili va o`qish darslarida qo`llaniladigan ko`rgazmalilikning keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ko`rsatmalilik turlari xilma-xil bo`lib, uni yana davom ettirishimiz mumkin. Ko`rgazma vositalardan yana biri qo`lda yasalgan olma daraxtining maketidir. Daraxtda mevalar osilgan. O`yin jarayonida sinfni uch guruhga bo`lamiz. Har bir guruhdan bittadan o`quvchi chiqariladi. O`quvchilar mevalardan uzib, uning orqasidagi topshiriqni bajarishi kerak. Har bir mevalar orqasida mavzuga oid so`zlar berilgan bo`ladi. O`quvchilar shu so`z qatnashgan gap tuzib, uni doskaga yozishi kerak. O`yin shu tariqa davom etib, qaysi guruh ko`proq olma mevasini yig`sa shu guruh g`olib hisoblanadi.

Ma`lumki, 2- sinfga qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadam qo`ygan bolaning faoliyatida o`yin asosiy o`rinni egallaydi. O`yin ularning eng sevimli mashg`uloti bo`lib, ular har qanday mashg`ulotni o`yin bilan uyg`unlashtirishga harakat qiladilar.

Shunday ekan, o`qituvchi o`quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg`uloti — o`yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvoviq foydalanish bilan ta`lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ta`lim jarayonida qo`llaniladigan didaktik o`yinlarni biz mazmuniga va arnalgaga oshirish shakliga ko`ra 2 xil tasnif qilish mumkin²⁰.

“O`ZIM TEKSHIRAMAN”

Bunday o`yinlarni o`tkazishda o`qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi. Boshlang`ich sinflarning har bir sinfida darsning boshlanishida qo`llash mumkin. O`qituvchi o`quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o`quvchilar diktantni yozib bo`lishgach, o`qituvchi doskaga diktantni yozib ko`rsatadi. O`quvchilar esa o`qituvchining yozganiga qarab, o`zlari yozgan diktantni tekshiradilar. Diktant oldin doskada yozilib, usti yopib qo`yilgan bo`lsa, o`qituvchi pardani ochadi. Bunday diktantlarni hatto alifbe davrida ham qollash mumkin bo`lib, o`qituvchi avval faqat haiflardan, so`ngra (undosh harflar bilan tanishtirilgach) bo`g`inlardan iborat diktant yozdirishi mumkin.

1 - variant: O o, I i, Uu, A a, O` o`.

- variant: -Lo, -no, -to, -mi, -un, -in.

²⁰ G`affarova T., Nurullayeva Sh. Boshlang`ich sinflar uchun ona tili va o`qishdan didaktik materiallar. Toshkent “Ilm Ziyo”, 2004, 14-bet.

- variant; Bola, lola, ona, zar, par.
- variant: Bugun havo issiq.

O`qituvchi doskaga bir nechta so`z yozib qo`yadi. O`quvchilar mustaqil ravishda shu so`zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

“HIKOYA”

Hikoya tuzish jarayonida o`quvchilarning lug`at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to`g`ri tuzish, tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O`quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag`batlantirilishi ularning o`ziga bo`lgan ishonchini orttiradi. Bu o`yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg`ulotlarda, to`garaklarda foydalanish mumkin.

1-variant: Nafisa, soat, yomg`ir, kitob.

2-variant: Olma, kasal, o`rtoq, Abduvali.

3-variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

“U KIM, BU NIMA?”

Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo`yiladi. O`qituvchi shu predmetlardan birortasini ta`riflaydi. O`quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

Bu o`yinining afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o`quvchilar diqqatini jamlash, qo`llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Bu o`yin o`quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o`yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

1-variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o`ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o`ynaydilar. (Javob: «Koptok»)

2-variant: U barcha o`quvchilarning o`rtog`idir. Onalarimiz ham, otalarimiz ham uni juda yaxshi ko`radilar. (Javob: Kitob»)

3-variant: U shunday narsaki, bizga vitaminlarga boy mevalar beradi,

xohlasak undan stol yoki stul ham yasash mumkin. (Javob: «Daraxt»)

“TOPAG`ON”

O`qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O`quvchilar shu belgini o`zida jam qilgan predmetlar nomlarini yozadilar. Eng ko`p tog`ri javob topgan o`quvchi g`olib sanaladi. Bu o`yinni o`tkazish o`quvchilarga so`z turkumlari haqidagi dastlabki ma`lumotlar berish jarayonini yengillashtiradi. Bundan tashqari, bolalar so`z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, mustaqillik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

1-variant: Savol: Nima oq rangda ?

Javob: Qog`oz, daftar, surp, bulut, parda buvimning sochlari, qor.

2-variant: Savol: Nima yumshoq?

Javob: Non, xamir, yostiq, ko`rpa, paxta.

3-variant: Savol: Nigora nima qilyapti?

Javob: Kitob o`qiyapti, kir yuvyapti, qo`shiq aytyapti.

“NOTO`G`RI JUMLA”

Bu o`yin suratlar asosida o`tkaziladi. O`qituvchi ma`lum bir suratni tasvirlab berish jarayonida suratlarga tegishli bo`lmagan jummalarni ham ishlatadi. O`quvchilar ziyraklik bilan shu jumlani topishlari lozim.

O`quvchilardan bu o`yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ya`ni ular suratni kuzatish bilan birga o`qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto`g`ri jumlani topa bilish ularning sinchkovligini o`ziga bo`lgan ishonchini va darsga qiziqishini orttiradi.

Bu o`yindan faqat ona tili darslarida emas, balki darsdan tashqari mashg`ulotlarda ham foydalanish mumkin.

Samad aka duradgor. Uning qo`li gul. U o`g`illariga ham duradgorlikni o`rgatgan. Ular qushlar uchun in yasashdi, singlisi Nigora ularga choy olib keldi.

(Javob: Nigora suratda tasvirlanmagan).

“DAVOM ETTIR”

O`qituvchi hikoyani boshlab beradi. O`quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o`quvchilarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy

ishlar yozish malakasi rivojlanadi va soʻz boyligi ortadi. Bundan tashqari, ularda mustaqillik, oʻz kuchiga ishonch hissi rivojlanadi.

“Davom ettir» oʻyinidan ona tili, oʻqish darslarida yoki darsdan tashqari mashgʻulotlarda foydalanish mumkin.

1-variant: «Umida barvaqt maktabga kelayotganida yoʻlda ...»

2-variant: «Havo ilib, qorlar eriy boshladi ...»

3-variant: «Biz, sinfimizdagi barcha oʻquvchilar, hayvonot bogʻiga bordik
“Sirli soʻz”

Oʻqituvchi oʻquvchilarga sirli katakchalarda bir xil soʻz necha marta yozilganligini topishni aytadi. Eng koʻp topgan oʻquvchi gʻolib sanaladi. «Sirli soʻz» oʻyini oʻquvchilarga boshqotirmalarni hal etishdagi dastlabki maʼlumotlarni beradi va ularning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

« Sirli soʻz» oʻyini ona tili, oʻqish darslari samaradorligini oshirish uchun yoki turli ertaliklarning qiziqarli oʻtishi uchun juda qoʻl kelishi mumkin.

n	o	n
0	o	0
n	0	n

ZANJIR”

Oʻqituvchi dastlab bir soʻz aytadi. Oʻquvchilar bu soʻz qaysi harf bilan tugagan boʻlsa, shu harf bilan boshlanuvchi soʻzni topib aytadilar. Soʻz oʻyini shu tarzda davom etadi.

Bu oʻyinni yuqori sinflarda maqollar, tez aytishlar yoki kichik sheʼrlar vositasida oʻtkazish mumkin. Bunday oʻyinlarning oʻtkazilishi oʻquvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga oʻrgatadi. Bu oʻyindan ona tili va oʻqish darslarida, dam olish daqiqalarida yoki darsni boshlashdan oldin oʻquvchilar diqqatini toʻplab olish maqsadida foydalanish mumkin.

1-variant: Tabiat, taom, maymun, non, nok, kitob, botir, rayhon

2-variant: Habiba, ayiq, qirol, limon, Nigora, Alisher, Raʼno, olim

3-variant: Gul, Laziza, Amerika, Anvar, Rahima, Andijon, Namangan

“O`YIN-TOPISHMOQ”

Bu o`yindan darsning ma`lum bir qismida kichik hajmda yoki darsdan tashqari mashg`ulotlarda katta hajmda foydalanish mumkin. U quyidagi tartibda o`tkaziladi. O`qituvchi biror bir so`zni topishmoqlar yoki so`zlar vositasida uch marta ta`riflaydi. Birinchi ta`rif murakkab, ikkinchi ta`rif yengilroq, uchinchi ta`rif esa juda yengil bo`ladi. Birinchi ta`rifdanoq javobni to`g`ri topgan o`quvchiga 3 baho, ikkinchi ta`rifda to`g`ri javobni topgan o`quvchiga 2 baho, uchinchi ta`rifda to`g`ri javobni topgan o`quvchiga esa 1 baho beriladi. Bu oyinni bir o`quvchi bilan og`zaki yoki ko`pchilik o`quvchilar bilan yozma ravishda o`tkazish mumkin.

Bunday oyinlar o`quvchilar uchun juda qiziqarli bo`lib, ularning mustaqil fikrlash darajasini aniqlashga yordam beradi va rivojlantiradi. «O`yin-topishmoq» dan darsda yoki darsdan tashqari mashg`ulotlarda, ertaliklarda musobaqa tarzida foydalanish mumkin.

1-variant:

1-ta`rif: Kichkina dono,

Ichi to`la ma`no.

2-ta`rif: U har birimizda bor,

Usiz biz maktabga kelmaymiz.

3-ta`rif: Qat-qat qatlama,

Aqling bo`lsa tashlama. (Javob: «Kitob»)

2-variant:

4-ta`rif: Tabiat hodisasi. Yog`maydi-yu, ammo tongda hamma joyni qoplab oladi.

5-ta`rif: Sovug`i bor, emas qor,

Oppoq, hech kim demas qor.

6-ta`rif: Sovuq vaqtida tongda hamma joyni qoplaydi-yu, havo sal isishi bilan darrov erib ketadi. (Javob: «Qirov»)

3-variant:

7-ta`rif: Aytishlaricha, u shunaqa oq ko`ngil ekanki, mabodo biror kishini

chaqib xafa qilib qo`ysa, o`zi halok bo`lar emish.

8-ta`rif: U hasharotning nomiga shirinlik nomi ham qatnashgan.

9-ta`rif: Guldan-gulga qo`nar u,

Sharbat yig`ib jo`nar u.

Yig`ib o`zi yemaydi,

Uyasiga to`playdi.

Hosili men-u senga,

Kim nomin aytar menga ? (Javob: «Asalari»)

“BU MENIKI”

O`qituvchi har biriga har xil harflar yozilgan kartochkalarni o`quvchilarga tarqatadi. Shundan so`ng o`qituvchi so`zlarni o`qiy boshlaydi. O`quvchilar qo`llaridagi kartochkalarda yozilgan harf bilan boshlanadigan so`zni eshitishlari bilanoq, «Bu meniki» deb javob berishlari shart. O`qituvchi so`zlarni tezroq o`qiydi, shuning uchun o`quvchilardan ziyraklik talab qilinadi.

1-variant:

Tarqatiladigan harflar: A, B, V, G, D. So`zlar: Atlas, vagon, baho, gul, olma, anor, farzand, bahor...

2-variant:

Tarqatiladigan harflar: I, M, T, S. So`zlar:

Inobat, taom, soat, maymun, Hon, ta`rif, osmon, marka

3-variant:

Tarqatiladigan harflar: R, P, O, L, V. So`zlar: Rohat, Osiyo, Lola, vazir, rayhon, olcha, lagan, vertolyot...

“TEZ JAVOB”

O`qituvchi yoki boshlovchi qator oralab yurib, o`quvchilardan birini turg`izadi va biror narsa-buyum turi nomini aytadi. O`quvchi shu turga kiruvchi so`z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o`quvchi o`yindan chiqadi. O`yin toki bitta o`quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o`yin davomida o`quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o`rganadi,

atrofdagi sodir bo`ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Bu o`yindan dars davomida, dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

1-variant:

O`qituvchi: « Hayvon».

O`quvchi: «It»

O`qituvchi: «Kino».

O`quvchi: «Abdullajon»...

2-variant:

O`qituvchi: «O`quv quroli».

O`quvchi: «Daftar»

O`qituvchi: «Qizlar ismi».

O`quvchi: «Noila»...

3-variant:

O`qituvchi: «Sinf jihozi».

O`quvchi: «Xattaxta»

O`qituvchi: «Ertaklar».

O`quvchi: «Zumrad va Qimmat»

II. HARAKATLI O YINLAR “U NIMA QILYAPTI?”

(“PANTAMIMO”)

O`quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib ovozsiz harakatlar qiladi. O`quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o`yin o`qish va ona tili darslarida o`quvchilar nutqini o`stirish, ziyraklik va zeriktirmaslik uchun o`tkaziladi.

“JONLI HIKOYA”

O`qituvchi so`zlar yozilgan qog`ozlarni o`quvchilarga tarqatib beradi. Shundan so`ng o`qituvchi o`quvchilarga hikoya o`qib beradi. (Qog`ozlarda yozilgan so`zlar birgalikda shu hikoyani hosil qiladi.) O`qituvchi hikoyani ikkinchi marta o`qib berganda o`quvchilar qo`llaridagi qog`ozlarni shunday ketma-ketlikda 80 joylashtirishlari kerakki, qog`ozlarga yozilgan so`zlar bir butun hikoyani hosil qilishi lozim. Bu o`yinni o`tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari

hikoya va ertaklardan foydalanishlari mumkin.

1 - variant: Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi. Daraxtlar gullab, maysalar ko`kara boshlaydi.

Olimjon ko`chada yig`layotgan bolani ko`rib qoldi. U koptogini ariqqa tushirib yuboribdi. Olimjon bolaning koptogini olib berdi.

O`rmon shohi sher yig`in o`tkazdi. Ular tulkixonning ishlarini muhokama qildilar. Tulkixon aybini bo`yniga oldi.

“QIRUVCHI”

«Quruvchi» o`yini o`quvchilarni guruhlarga bo`lib, darsda o`tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o`tkazilishi mumkin. O`qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko`rib, qog`ozdan yoki penoplast bo`lakchalaridan «g`ishtchalar» yasaydi va bu «g`ishtchalar»ga savol yozilgan qog`ozlarani yopishtirib chiqadi. «G`ishtchalar» soni o`quvchilar soniga teng yoki ko`p bo`lishi kerak, guruhlarga «minora» yoki «devor» qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va «g`ishtcha»ni olib savolni o`qiydi. Agar savolga bolalar to`g`ri javob topsalar o`zlarining «maydoncha»lariga «g`isht»ni teradilar. Agar noto`g`ri javob bersalar, o`qituvchi «g`ishtcha»ni olib qo`yadi. O`yin shu taxlitda barcha o`quvchilar bittadan «g`ishtcha» olib bo`lgunlariga qadar davom etadi. «Qurilish maydonchasi»da eng ko`p g`isht tergan o`quvchilar guruhi g`olib hisoblanadi.

ARALASH TIPDAGI OYINLAR

Stol ustida bir necha yoki alohida buyumlar surati tushirilgan kartochkalar joylashtiriladi. O`quvchilar stol ustini yaxshilab kuzatib, narsalarni eslab qoladilar. Shundan so`ng o`qituvchi o`quvchilarga bildirmasdan ularning bittasini olib qo`yadi. O`quvchilar stol ustidan nima yo`qolib qolganini topishlari lozim. Bu o`yindan darsda va darsdan tashqari mashg`ulotlarda foydalanish mumkin. Bu o`yin ayniqsa alifbe davrida harflarni organish jarayonida juda qol keladi.

“POCHTACHI”

O`quvchilardan bittasi pochtachi sifatida sinfga kirib keladi va o`quvchilarga bittadan surat solingan xatjild topshiradi. Har bir o`quvchi qo`lidagi

suratda nimalar tasvirlanganini soʻzlab beradi. Boshqa oʻquvchilar oʻrtoqlarining hikoya davomida nechta soʻzdan foydalanganini sanab boradilar. Soʻzlardan koʻp va orinli foydalangan oʻquvchi gʻolib sanaladi.

“KUN VA TUN”

Oʻqituvchi doskaga ikki yoki undan ortiq soʻzni yozadi. Oʻquvchilar oʻqiganlaridan soʻng «tun» deb buyruq beradilar. Bolalar koʻzlarini yumib oladilar va oʻzlarini uxlaganga soladilar. Oʻqituvchi soʻzlardagi biror harfni yoki boʻgʻinlarni almashtirib qoʻyadi. «Kun» degan buyruqdan keyin oʻquvchilar koʻzlarini ochadilar va qanday oʻzgarishlar boʻlganligini aniqlaydilar.

1 - variant: Karima— Salima, Sobir—soat, oldi— qoldi.

2-variant: Bolalar—bolarilar, Sharif—sharf, son - kon.

3-variant: Kunduz—qunduz, qum—dum, oʻquvchi - uchuvchi, kun-tun.

“QARMOQ”

Bu oʻyindan barcha darslarda qoʻshimcha savollar berish yoki turli ertaklarda foydalanish mumkin. Baliqchalar shaklidagi qogʻozchalarga savollar yoziladi va bir chetiga temir qistirgichlar qistiriladi. Qarmoq shaklidagi tayoqchlarning uchiga ip va ipning uchiga magnit boʻlakchasi bogʻlab qoʻyiladi. Oʻquvchilar bu “qarmoqlar” vositasida “baliqchalar”dan birini tutib olishlari va undagi savolga javob berishlari lozim boʻladi. Bu oʻyinni oʻquvchilar diqqatini jamlash maqsadida ona tili va oʻqish darslarida boʻladigan dam olish daqiqalarida oʻtkazish mumkin.

Oʻqituvchi buyumlar nomlari yozilgan qogʻozlarni stol ustiga teskari qilib qoʻyadi. Oʻquvchilardan biri qogʻozlardan bittasini tanlab oladi va shu qogʻozga qarab unda nomi yozilgan buyumni shunday tasvirlashi kerakki, qolgan oʻquvchilar gap nima haqida borayotganligini darrov tushunib javob berishlari kerak. Bu oʻyin oʻquvchilarda ziyraklik, atrof-muhitga qiziqish, sinchkovlik kabi xususiyatlarni vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qoʻl keladi.

variant:

Bu yerda mevaning nomi yozilgan.

U har xil — qizil, sariq, yashil rangda

bo'lishi mumkin. Uni yegan bolalarning tishlari sog'lom bo'ladi. (Javob: "Olma").

variant:

U daraxt doim yashil rangda bo'ladi.

Yangi yilda esa yanada bezanadi. (Javob: "Archa").

Dars jarayonida mavzyga oid tuzilgan krossvordlar ham ko'rsatmalilikning yana bir turidir. Bulardan tashqari magnit tasmasiga yozilgan topshiriqlar o'quvchilarda zo'r qiziqish o'yg'otadi. Ular diqqat bilan qiziqib, tinglab, javobini tezroq topishga harakat qiladilar.

“KROSSVORD”

Krossvord o'yinini o'tkazish uchun o'quvchilar yoshiga mos holda juda sodda ko'rinishda krossvordlar tuzib olinadi. O'quvchilar mustaqil ravishda javoblarni topib yozadilar.

Dastlab krossvordlar o'qituvchi boshchiligida hal etiladi. O'quvchilarda krossvordlarni hal etish ko'mkmalari paydo bo'lgandan keyin o'qituvchi nazorati ostida mustaqil yechadilar.

Krossvord» o'yini o'quvchilar dunyoqarashini o'stirish bilan birga, ularga so'zlar imlosini yodda saqlab qolishlariga ham imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda krossvordlar suratlar asosida ham berilishi mumkin. Suratlar asosida berilgan boshqotirma quyidagicha yechiladi:

O'qituvchi: 2-suratda nima tasvirlangan?

O'quvchilar: Anor.

O'qituvchi: «Anor» so'zi nechta harfdan iborat?

O'quvchilar: To'rtta.

O'qituvchi: «Anor» so'zini «1» raqami ostidagi to'rtta katakchaga yuqoridan pastga qarab yozamiz.

2-suratda nima tasvirlangan?...

Shu tarzda katakchalakar to'ldirib boriladi.

O'yin avvalida katakchalarga so'zlarni o'qituvchi yozib bergan bo'lsa, keyingi so'zlarni o'quvchilar navbat bilan yozishlari ham mumkin.

Katakchalakarni to'ldirishda o'quvchilarning bevosita ishtiroki ularning qiziqishlarini oshiradi.

Katakchalar to'ldirib bo'lingach, o'qituvchi ajratib ko'rsatilgan (yo'g'on chiziq bilan chegaralangan) katakchalarda yozilgan so'zlarni o'quvchilar bilan birgalikda o'qiydi.

Krossvordlardan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Biz quyida 2-sinflar uchun qo'llash mumkin bo'lgan krossvordlarning bir nechta variantlarini keltiramiz.

1-variant

Bu krossvord 2-sinf o'quvchilari uchun mos bo'lib, bunda topshiriqlar rasmlar asosida berilgan. Bunday rang-baranglik o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi.

2-variant:

Onalar qo'shig'i.

Otamning opasi.

G'ildirakli qurilma.

Duradgorlik asbobi.

Bolaning ko'rgan narsalarni esda saqlab qolishi ko'rgazmali qurollarning did bilan ishlanishiga bog'liq bo'ladi. Agar kichik yoshdagi o'quvchilar esda saqlab qolish usullariga o'rgatilmasa, bunday hollarda bolalar materialdan bevosita ta'sirlanish darajasi uzoq vaqtgacha to'xtab qoladi.

Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchining rasm mazmunini gapirib berishi g'oyat foydalidir. Shuning uchun o'qituvchi rasm orqali adabiy tilda jonli, qiziqarli so'zlab, shaxsiy namuna ko'rsatishi kerak. Tarqatma materiallar, rasmlar va boshga ko'rgazmali qurollar o'quvchilar faolligini oshiradi.

Tajriba-sinov ishlari va uning natijalari

Yosh avlodga ta'lim tarbiya berayotgan o'qituvchi hamma vaqt izlanishda, harakatda bo'lmog'i lozim. Shundagina u tarbiya berayotgan o'quvchi mukammal bilim egasi bo'lib yetishadi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi 2-sinf ona tili va o'qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish bo'yicha topshiriqlar tizimi va ularni o'zlashtirishga bo'lgan o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va o'quvchilar faolligini oshirishga ta'sir etadigan vosita va usullarni aniqlashdan iboratdir. Biz tajriba-sinov ishlarining tashkil etish orqali uslubiy-amaliy xulosalar chiqarishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ydik. Bitiruv malakaviy ishimizning har ikki bobida bayon qilingan fikrlar tarqatma materiallardan foydalanish bo'yicha berilgan tavsiyalar, g'oyalar va maslahatlar tajriba-sinov ishlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

“2-sinf ona tili va o'qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish metodikasi” mavzusidagi yakunlavchi tajriba-sinov ishlari Navoiy shahridagi 12-maktabda o'tkazildi.

Men tajriba va kuzatish ishlarimni olib borish davomida sinf o'quvchilarining bilim darajasi va o'qituvchilarning ish tajribalarini, dars o'tish metod va usullarini kuzatdim, tanishib bordim. “2-sinf ona tili va o'qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish metodikasi” bo'yicha o'qituvchilarning fikrlari bilan o'rtoqlashdim. Ushbu bitiruv malakaviy ishimni yozishda maktabning ilg'or tajribali o'qituvchilari menga yaqindan yordam berdi. Ularning dars o'tish metodikasi bilan tanishdim, namunali darslarni kuzatdim. O'quvchilarni tarbiyalash borasidagi ijobiy ishlaridan amaliy xulosalar chiqardim.

Men 2-sinf o'quvchilarini komil inson qilib tarbiyalash bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirdim.

1. Darsga umumiy va alohida tayyorgarlik ko'rdim.
2. Mavzularni o'tishda tarqatma materiallardan foydalandim.
3. 2-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga oldim.
4. Darslarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qildim.

5. Anketa savollariga javoblar oldim.
6. Tarqatma materiallardan foydalanish rejasini tuzib chiqdim.
7. Tarqatma materiallar tuzish bo'yicha ishlar olib bordim.
8. Tarqatma materiallardan foydalanishda didaktik o'yinlardan foydalanish yo'llarini ishlab chiqdim.

9. 2-sinf ona tili va o'qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni yo'lga qo'ydim.

10. O'quvchilarning mustaqil fikrlashiga alohida e'tibor berdim.

Har tomonlama yetuk, bilimli yoshlarni tarbiyalash, o'quvchilarga berilayotgan bilim va ko'nikmalarni qay darajada bo'lishiga bog'liq. Shuning uchun noan'anaviy shakldagi tarqatma materiallardan ko'proq foydalanish dars o'tishda ijobiy samara berdi.

Erishilgan natijalarni o'zaro qiyoslash maqsadida nazorat va tajriba-sinov sinflari aniqlandi. Tajriba-sinovga jami 60 nafar o'quvchi jalb etildi. Shundan 30 nafari tajriba-sinov sinflarida, qolgan 30 nafari nazorat-sinov sinflari o'quvchilaridir. Nazorat va tajriba-sinov uchun o'zlashtirish darajasi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan sinflar tanlandi. Tajriba-sinov ishlarini boshlashdan oldin o'quvchilar bilan o'zaro muzokaralar o'tkazildi. Ularga tajriba-sinov ishimizning o'ziga xos xususiyatlari, har ikkala sinfdan olingan natijalarni qiyoslash, tajriba-sinov ishlarining borish jarayonini qayd qilish hamda eksperiment natijalarini qanday qilib umumlashtirish lozimligi tushuntirildi.

Shundav qilib, tajriba-sinov ishlari 2-sinf ona tili va o'qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish bo'yicha ko'zda tutilgan ta'lim mazmunini to'g'ri belgilanganligini va ularning samarali ekanligini ko'rsatdi.

XULOSA

2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish bo`yicha o`tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishdan asosiy maqsad o`quvchilarni bilimlar olamiga olib kirish, so`z sehrining jilolaridan bahramand etish hamda nutqiy malakalar ustida ishlash o`qitishning asosiy yo`nalishini tashkil etadi.

Aniqlovchi tajriba ishlari shuni ko`rsatdiki, 2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan to`g`ri va o`rinli foydalana olmasligi tufayli jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishda topshiriqlarning sharti amaliy maqsadlarni ko`zlashi kerak.

Tarqatma materiallar o`quvchilar nutqini o`stirish yoki ularda sinchkovlik, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qilmog`i kerak.

Tarqatma materiallar o`tilgan mavzularni takrorlash, mustahkamlash, olingan bilimlarni sistemalashtirish maqsadida ishlatiladi. Kartochkalarni tarqatishdan avval o`quvchilar o`qituvchi bilan birgalikda darslikda berilgan mashqlarni bajarib, mashqlar shartini tushunish, bajarilish tartibini va yo`llarini o`rganishga qaratilishi lozim.

Tarqatma materiallar bilan ishlashda o`qituvchi har bir o`quvchining individual bilim darajasini, bilimlarni o`zlashtirish darajasini, ularning har bir mavzu yuzasidan o`zlashtirgan bilim darajalarini alohida tarzda qayd qilib borish imkoniyatiga ega bo`lishi, bundan tashqari, tarqatma materiallardan foydalanishda bo`sh o`zlashtiradigan o`quvchilar bilan alohida ishlash, o`quvchilarning mustaqil ishlarini izchil ravishda murakkablashtirib borish imkoniyatini e`tiborga olishi kerak.

Tarqatma materiallardan o`z o`rnida va to`g`ri foydalanish o`qituvchiga qisqa muddat davomida yuksak natijalarga erishishga yordam beradi. O`quvchilarda bilim olish bilan birgalikda mustaqillik, ijodkorlik, o`z-o`zini

tekshirish, o`z kuchiga ishonch, har bir topshiriqni hal etishga mas`ullik va ijodkorlik bilan ongli yondashish kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

2-sinf ona tili va o`qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish orqali o`quvchilarni keng fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash, ijodiy fikr sohibi darajasiga erishmoqdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Adolat gazetasi 2011-yil 1-sentabr, №38 son.
2. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. "Adolat" gazetasi 2011-yil 8-dekabr. №51 son.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Тошкент., "Ўзбекистон", - 2012, 440 бет.
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008, 176.
5. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент. «Шарқ» нашриёти, 1998, 31.
6. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг ўз истаклол ва тараққиёт йўли. Тошкент. «Ўзбекистон» нашриёти, 1992, 78.
7. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бусағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент. «Ўзбекистон» нашриёти, 1997, 326.
8. Каримов И. А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. Тошкент. «Ўзбекистон» нашриёти, 1994, 301.
9. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. "O'zbekiston" 2000, 317.
10. Karimov I. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. T "Sharq". 1998, 98.
11. Karimov I. Adolatli jamiyat sari. T. "O'zbekiston", 1998, 159.
12. Баркамол авлод орзуси (Тузувчилар: Қурбогов Ш, Саидов Ҳ., Аҳлиддинов Р) Тошкент. «Шарқ» нашриёти, 1999, 184.
13. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент. «Шарқ» нашриёти, 1998,63.
14. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент. «Ўзбекистон» нашриёти, 1998, 47.

15. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti. Toshkent "Boshlang'ichta'lim" jurnali, 2005, 5-son, 64.
16. Boshlang'ich ta'lim fanlari bo'yicha standart tekshiruv ishlari to'plami. Toshkent "Ma'rifat - Madadkor", 2002, 415.
17. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 1997-yil, 30-avgust. "Ma'rifat" gazetasi.
18. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". "Ma'rifat" gazetasi. 1997, 30-son.
19. O'zbekiston Respublikasi "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi" "Boshlang'ich ta'lim" jumali, 1998, 2-son.
20. Ona tili - Davlat tili (Tuzuvchilar: N. Jumaxo'ja, R. Jomonov). Toshkent "Adolat", 2004, 78.
21. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2-жилд. Тошкент "Маънавият", 1998, 60-бет.
22. Abdullayeva Q. "Ta'limda uzluksizlikni ta'minlash" "Ma'rifat" gazetasi. 2000, 16-fevral.
23. Abdulahatova R., Nosirova T "Til ta'limida uzviylik va uzluksizlik" Toshkent 2008. 83.
24. Бабанский Ю. К. Хозирги замон умумий таълим мактабларида уқитиш методлари. Тошкент Уқитувчи" нашриёти, 1990, 230.
25. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1995, 52.
26. Ibrohimov A., Sultonov X. Vatan tuyg'usi. Toshkent "O'zbekiston". 1996. 230.
27. Matchonov S., Gulomova X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Toshkent, "Yangiyul" nashriyoti, 2008, 224.
28. Muhiddinova H. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 1994-yil. 2-mart- may soni. 32.
29. Nisxonova Z. Mustaqil fikrlashga o'rgatish. "Boshlang'ich ta'lim"

jurnali, 1999, 3-son, 34-35-bet.

30. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent “Noshir” nashriyoti, 2009, 351.

31. Qo`ziyev F. O`quvchilarning o`quv faoliyatini boshqarish. Toshkent “O`qituvchi” nashriyoti. 1988, 100.

32. Roziqov O., Maxmudov M. Ona tili didaktikasi. Toshkent “Yangi asr avlodi”, 2005, 387.

33. Safo Ochil. Mustaqillik ma`naviyati va tarbiya asoslari. Toshkent “O`qituvchi” nashriyoti, 1995. 198.

34. Ushinskiy K. D. Tanlangan pedagogik asarlar. — Toshkent: «O`zdavnashr», 1959. 249.

35. Йулдошев Ж. Таълимимиз истиқлоли йўлида. Тошкент “Шарқ”нашриёти 1996, 223.

36. K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne`matova. Ona tili kitobi 2- sinf uchun. Toshkent. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010, 128.

37. Abdullayeva Q., Yusupov M, Rahmonbekova S 2-sinf o`qish kitobi. Toshkent “O`qituvchi”, 2010, 190.

38. G`affarova T., Nurullayeva Sh. Boshlang`ich sinflar uchun ona tili va o`qishdan didaktik materiallar. Toshkent “Ilm ziyo” nashriyoti, 2004, 80.

39. Фуломова А. Она тили дарсларида укувчиларнинг укув-билув фаолиятини активлаштириш. Тошкент “Ўқитувчи”. 1987, 126.